

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

OLIY TEXNIKA TA'LIMIDA O`QITISH TEXNOLOGIYALARI

F.P. ABDURASULOV

**“PEDAGOGIK MAHORAT ” O`QUV PREDMETIDAN TA'LIM
TEXNOLOGIYASI**

JIZZAX– 2010

F.P. ABDURASULOV «Pedagogik mahorat» fani bo`yicha ta'lim texnologiyasi /
“Kasb ta'limgagini o`qitish texnologiyasi” seriyasidan. Jizzax.: JizPI, 2010, 180 b.

Kitobda «Pedagogik mahorat» fani bo`yicha o`qitishning texnologiyalashtirish qoidalarini hisobga olgan holda loyihalashtirilgan tajriba-sinov ta'lim texnologiyasi keltirilgan.

Ushbu kitob «Pedagogik mahorat» fanini o`qitishdagi barcha oliy o`quv yurti professor-o`qituvchilari uchun mo`ljallangan.

Taqrizchilar: p.f.n.dots. J.A.Hamidov
p.f.n.dots. S.Ro`ziboev

KIRISH

«PEDAGOGIK MAHORAT» o'quv kursi bo'yicha ta'lim texnologiyasi ma'ruza va amaliy mashg`ulotlarni loyihalash texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur qo'llanma kirish, ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari hamda ma'ruza va amaliy mashg`ulotlarda o'qtishish texnologiyalaridan tarkib topgan.

Ta'lim texnologiyasining kontseptual asoslari bo`limida «PEDAGOGIK MAHORAT» o'quv kursini o'qtishning dolzarbliги asoslangan, mazkur kursning tuzilmasi keltirilgan hamda kurs bo'yicha o'qtishning mazmuni ochib berilgan. Shu bilan birga o'qtish, kommunikatsiya, axborot va ta'lim jarayonini boshqarish usullari va vositalarining kontseptual asoslari yoritigandir.

So`ngra kurs bo'yicha o'qtish texnologiyalari loyihalashtirilgan:

ma'ruza mashg`ulotlarini olib borishning kirish-ma'ruza, mavzu asosida ma'ruza, muammoli ma'ruza, vizuallashtirilgan ma'ruza va yakunlovchi ma'ruzalar ko`rinishlari qo'llanilishi;

amaliy mashg`ulotlarni olib borishning topshiriqlarni individul tarzda yoki guruhda bajarilishi, vaziyatli ishlanma – keys-stadilar usuli, nazariy bilimlar asosida bilimlar va ko`nikmalarni chuqurlashtirishga yo`naltirilgan amaliy topshiriqlarni bajarilishi.

Mazkur ta'lim texnologiyasi barcha oliy o'quv yurtlarida, malaka oshirish kurslarida, o'qtish texnologiyasida ko`zda tutilgan sharoitlar va vaqtin mavjud bo`lgan holda «PEDAGOGIK MAHORAT» kursini olib borishda o'qituvchi tomonidan qo'llanilishi mumkin.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” O’QUV PREDMETI BO‘YICHA TA'LIM
TEXNOLOGIYASINING KONTSEPTUAL ASOSLARI**

1. «PEDAGOGIK MAHORAT» KURSINING DOLZARBLIGI VA O`QITISH STRUKTURASI

Xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O`zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiylarini va navqiron xalqimiz qalbida butun Insoniyatning ulkan oilasida o`z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg`usi bilan birgalikda etilgan. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish – davlat siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur ta'lif texnologiyasi “Barkamol avlod yili” davlat dasturi va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning “Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch”, «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralarini» nomli asarlarida va “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”: O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma'rurasasi, «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir»: 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O`zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rurasida keltirilgan materiallar, qoidalar va xulosalar asosida tuzilgan.

Respublikamiz mustaqillikga erishgach pedagogik mahorat fanini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan “Ta'lif to`g`risidagi qonun”, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning yaratilishi ta'lifni tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to`la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini berdi.

Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo`ljallangan vazifalarni hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, yuksak umumiyligi va kasbiy madaniyatiga ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo`nalish ola bilish mahoratiga ega bo`lgan yangi avlodni shakllantirishni ta'minlaydi.

O`zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishining hayotiy zarurati va dolzarbli haqida gapirar ekanlar, «Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e'tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash talablari oldimizga muhim vazifalarni qo`ymoqda» deb alohida ta'kidlaydilar. Bu vazifalar, birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari bo`lmish yosh avlodning bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo`lib o`z yurti va halkiga sitqidildan mehnat qilish, ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o`rgatishni nazarda tutadi. Zero, mustaqillik aynan fidoiy, o`z Vatani

manfaatlariga g`oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlarning jamiyatni boshqarishini taqozo etadi.

Zamonaviy kadrlar oldiga qo`yilayotgan eng muhim vazifalardan biri - malakali mutaxassislar sifatida o`zligini, o`z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofidagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko`rsatishdir. Bu o`rinda inson har tomonlama etuk shaxs qilib tarbiyalash qonunlari va qonuniyatlarini o`rganuvchi pedagogik mahorat fanining o`rni va roli benihoya kattadir. Yosh avlodni yangicha ta'lim standartlari asosida, jahon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash ishi oliy o`quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun yangi darsliklar, o`quv qo`llanmalari, risolalar tayyorlashning ham yangicha uslublarini talab etmoqda. Ushbu o`quv qo`llanma yoshlarga aynan psixologik bilimlar asoslarini bersa-da, umid qilamizki, ularni o`z atrofida ro`y berayotgan islohotlarga holis baho berish, o`zi va o`zgalar ruhiyati sir-asrorlarini befarq bo`lmaslik, o`z layoqatlarini o`stirishning elementar vositalaridan bohabar bo`lishga yordam beradi. Chunki shaxsgina o`z qobiliyati, iqtidori, layoqati, tafakkuri, diqqati, xarakteri xususiyatlarini bilib, uni to`g`ri yo`naltira olsa, bu nafaqat shaxsning o`ziga, balki jamiyat uchun ham katta naf keltiradi. Shunday ekan, hozirgi kunda psixologiya fani sir-asrorlarini har bir o`quvchi uchun zarur bo`lgan jihatlarini, chunonchi: psixologiyaning boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi, hamkorligi, bog`liqligini; psixologiyaning zamonaviy yo`nalishlari va tarmoqlarini; shaxsni psixologik diagnostika qilish usullarini; shaxs va jamiyat munosabatlarini uyg`unligini; shaxs faoliyati va hatti-harakati motivlarini; faoliyati turlarini; shaxsda kuzatiladigan psixik jarayonlar: sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, hayolni bilish va ularni boshqarish qonuniyatlarini qo`llay olishni; shaxsdagi qobiliyat, xarakter va temperament kabi individual psixologik xususiyatlarning shaxs faoliyati va hayotidagi tutgan o`rnini; shaxsning turli yosh davrlarga bog`liq xususiyatlarini; shaxsning muloqot jarayonidagi shakl, tur, vositalarini; shaxsning guruhga va o`z navbatida guruhning shaxsga ta'sirini; o`quv va tarbiya jarayonida qo`llash mumkin bo`lgan samarali usullarni bilish, o`rganish muhimdir.

«Pedagogik mahorat» fanining vazifasi shundaki, oliy o`quv yurtida o`qitiladigan fanlarni to`liq egallah talaba maqsadiga aylanishi kerak. Buning uchun talaba har bir fanni to`liq o`zlashtirishi, o`z ustida doimo ishlashni bilishi lozim. Bo`lajak mutaxassis zamon bilan yashashi, kelajakni ko`rishi kerak. Jamiyatning maqsad va vazifalarni aniq bajarishida ijodiy yondashish qobiliyatiga ega bo`lishi lozim. Ushbu fanni o`qitishdan maqsad – “Pedagogik mahorat” fanini o`qitish asosida bo`lajak pedagoglarni mutaxassislik bo`yicha bilimlarni kengaytirish, ularning kasbiga bo`lgan qiziqishlarini yanada chuqurlashtirish, barkamol shaxs qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Fan bo`yicha bilimi, malaka va ko`nikmaga qo`yiladigan talablar

O`qituvchining kasbiy madaniyatini oshirish; kasbiy faoliyatni tashkil etish; o`qituvchining pedagogik mahoratini oshirish yuzasidan malakalarga ega bo`lishi lozim.

Pedagogik mahoratni shakllantirish usullarini; pedagogik mahorat fanining qonuniyatları va qoidalarini; pedagogik mahorat fanining komponentlarini;

o`qituvchida pedagogik mahorat va kasbiy madaniyatni shakllanish usullarini; o`qituvchining muloqatchanlik qobiliyati takomillashtirish usullarini bilishi kerak va qo'llay olishi kerak.

Pedagogik mahorat qonuniyatlariga amal qilish bo'yicha; pedagogik mahorat komponentlaridan foydalanish bo'yicha; sog'lom muloqot o'rnatish bo'yicha; pedagogik mahoratni shakllantirish usullari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

"Pedagogik mahorat" fani pedagogika, psixologiya, kasbiy pedagogika, filosofiya kabi fanlar bilan uzviy bog`liqdir. «Pedagogik mahorat» fanini o'kitishda o`qituvchining pedagogik mahoratini, nutq texnikasi va madaniyatini, talabalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, pedagog faoliyatida aktyorlik va rejissyorlik, hissiy holatni kasbiy jihatdan mustaqil tartibga solish kabi usullar amalga oshiriladi.

"Pedagogik mahorat" fanini o`qitishda mavjud 25 ta mavzuning barchasi ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida o'tiladi. Mavzularning mazmuni va hajmiga qarab ularda ilg`or pedagogik texnologiyalarning ayrim usul va texnikalaridan foydalilaniladi. Mavzularni o'tishda "insert", "blits-so'rov", "klaster", "aqliy hujum" kabi usul va texnikalardan keng foydalilaniladi. Amaliy va seminar darslarda "zig-zak", "guruh bo'lib ishlash", "insert", "koop-koop" kabi texnikalaridan ustun darajada foydalilaniladi. Bundan tashqari mazkur fanni o`qitishda O`UM va keyslardan foydalanish lozim.

"Pedagogik mahorat" kursi 90 soatdan iborat bo'lib, shu jumladan 36 soat ma'ruza, 36 soat amaliy mashg`ulotlardan va 18 soat mustaqil ta'limdan iborat.

Reyting jadvali

Maksimal ball - 100 ball

JN maks. ball - 40 86-100 ball - 5 baho

ON maks. ball - 30 71-85 ball - 4 baho

YaN maks. ball - 30 55-70 ball - 3 baho

2. Ma'ruza va amaliy mashgulotlari mazmuni:

| T/r | Boblar bo`yicha ma'ruzalar nomi va mazmuni | Jami auditoriya soati | Ma'ruza soati | Amaliy mashgulotlar |
|-----|--|-----------------------|---------------|---------------------|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1 | Pedagogik mahorat fanining maqsadi va vazifalari. | 4 | 2 | 2 |
| 2 | Pedagogik mahorat va tajriba | 8 | 4 | 4 |
| 3 | Pedagog faoliyatida muloqot madaniyati | | | |
| 3 | Pedagogik nazokat va pedagogik odob-axloq | 4 | 2 | 2 |
| 4 | Kasbiy texnika va uning tarkibiy qismlari | 4 | 2 | 2 |
| 5 | Pedagogik munosabat ko`rsatish uslubiyoti | 4 | 2 | 2 |
| 6 | Pedagogning ijodiy kayfiyatini boshqarishning asosiy yo`nalishlari | 4 | 2 | 2 |
| 7 | Pedagogik texnika. Pedagogik texnikani shakllantirish shartlari | 4 | 2 | 2 |
| 8 | Jamoani shakllantirish metodikasi | 4 | 2 | 2 |
| 9 | Jamoada shaxsnı tarbiyalash uslubiyoti | 4 | 2 | 2 |
| 10 | Pedagogik mahoratda nutq madaniyatini tutgan o`rni. | 4 | 2 | 2 |
| 11 | Pedagogning tarbiyalanuvchilar bilan muomalasi | 4 | 2 | 2 |
| 12 | O`qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat | 4 | 2 | 2 |
| 13 | O`qituvchining ta`lim jarayonidagi mahorati | 4 | 2 | 2 |
| 14 | Pedagogning tarbiyachilik mahorati | 4 | 2 | 2 |
| 15 | O`z-o`zini tarbiyalash va o`z ustida ishlash | 4 | 2 | 2 |
| 16 | Yangi pedagogik texnologiyalar | 8 | 4 | 4 |
| | JAMI | 72 | 36 | 36 |

«Pedagogik mahorat» fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

«Pedagogik mahorat» – fanining predmeti o`z-o`zini boshqarish, fundamental bilimlarni, kasb mahoratini, mutaxassislik malakasini egallash, mutaxassislik qobiliyatlarini, mahoratni takomillashtirish. «Pedagogik mahorat» fanining maqsadi – yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yaratish. Pedagogik faoliyatning nufuzli va ijtimoiy mavqeini ko`tarish. Ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularda pedagogik mahoratni shakllantirish, mustaqil fikr yuritish, mehr-muruvvat xislatlarini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy, ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiya mazmunini insonparvarlik g`oyasi bilan boyitish, demokratlashtirish hamda uning uzviyligi, izchilligi va dunyoviyligini ta'minlash ushbu fanning asosiy vazifalaridandir. Shuningdek, «Pedagogik mahorat» fani asosida talabalarda axloqiy bilimlar, pedagogik faoliyat kabi xususiyatlarni kamol toptirish. Mahorat – yuksak va doim mukammal tarbiya va ta'lim san'ati. O`z ishining ustasi. Pedagog – yuksak madaniyat mutaxassisi, o`z fanini chuqr biladigan, fan va san'atning munosib tarmoqlarini, umumiyligini va bolalar psixologiyasi masalalarini yaxshi tushunadigan, ta'lim va tarbiya uslublarini mukammal egallash haqida. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O`zbekistonning 2008 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2009 yildagi iqtisodiy islohotlarni eng muhim ustuvor yo`nalishlariga doir ma'ruzasi va “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” kitobini o`rganish asosida.

Kasbiy texnika va uning tarkibiy qismlari

Pedagogik texnika – o`qituvchiga o`quv va o`qishdan tashqari faoliyatda zarur bo`lgan umumiyligini pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.

Pedagogik taxnikaning tarkibiy qismlari: nutq madaniyati, mimik pantomima, o`qituvchining hissiy holati, savodli gapirish, o`z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon etish, o`z fikr va his-tuyg`ularini so`zda aniq ifodalash, aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag`batlantiruvchi yoki iliq tabassum, jiddiylik darajasi umidbaxsh, xayrixohlik kayfiyatini saqlash haqidagi malakalarni ta'minlovchi umumiyligini xususiyatlari. O`qituvchining o`zini tutishi. Talabalar bilan hamkorligi.

O`qituvchining pedagogik texnikasi – bu tarbiyalanuvchilarni ko`rib va eshitib turish orqali ularga o`z fikri va qalbini yetkazish, bevosita muomala qilish, o`qituvchining eng yaxshi ijodiy xulq-atvori, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko`rsatish, o`zaro ta'sir ko`rsatish, talabalar bilan muomala qilishda zarur so`zni topish yoki muvaffaqiyatli chiqmagan gap ohangini tushuntirishga o`z fikrini chalg`itmaslik kabi malakalarni egallash.

Pedagogik mahorat va tajriba

O`qituvchining pedagogik mahorati o`quv mashg`ulotlarining ilmiy g`oyaviy va ommabop bo`lishi, ta'lim jarayonida o`quvchilar o`rtasida jonli til, fikr almashuv, samimiyligini munosabat, hurmat, va maqsadga erishishda o`zaro hamkorligi. Inqiroz sharoitida malakali pedagoglar faoliyatini o`rganish va tahlil qilish. O`qituvchining pedagogik mahorati bu uning ongliligiga, milliy g`oya va mafkuraga sodiqligiga, bilim va fikr doirasining kengligiga, o`z vazifasiga, o`quvchilar bilan munosabatiga

e'tibor berish. O'qituvchining faoliyat mahorati: o'qituvchining mehnati; o'qituvchining san'ati; behad izlanish va azob, uqubatli kechinmalar, kundalik ishlar, xafsalasi pir yoki qilgan ishlaridan xursand bo`lish, ilhom va betakror g`ururlanish, boshdan kechirilgan quvonchdan qanoat hosil qilish xususiyatlari haqida.

O'qituvchi mahoratining tajribalari. Mehnat uslublari. Tarbiya berishdagi tajribalar. Tajriba jarayonida ko`p narsani bilish va uddalash, tarbiya berish qonunlari va tamoyillarini bilish, o`quv-tarbiya jarayonining samarali texnologiyalaridan mukammal foydalanish, har qanday vaziyatlarni to`g`ri tanlash, tashxis qo`yish va boshqalar haqida.

Pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan muomalasi

O'qituvchining ko`pqirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar haqida. Bularni amalga oshirish esa pedagogning xilma-xil faoliyatiga bog`liq. Bolalarni o`qitish, darsdan va bilim muassasalaridan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o`tkazish, ota-onalar hamda jamoatchilik o`rtasida pedagogik targ`ibot ishlarni olib borishi.

O'qituvchining o`zgalar bilan muomalada bo`lish tajribasining boyligi va muntazamlik darajasi. O'qituvchining o`zi shaxs sifatida qay darajada shakllanganligi, uning voqelikni qay darajada idrok etish va olingen axborotga baho berishga qodirligi.

Boshqarish vositasi bo`lgan muomala vazifasini amalga oshirish jamoadagi faoliyat muomala-munosabatlar tizimi haqida. Muomala vositasida o`quvchilar faoliyatini tashkil etish.

Pedagogik munosabat ko`rsatish uslubiyoti

O`quvchilar va pedagoglar o`rtasidagi muloqot madaniyati va mustaqil fikrga o`rgatish va mustaqil ishlash bilan ta'sir ko`rsatish, talabalar bilimini, savyasini oshirish haqida.

Pedagog munosabati – o`quvchilar bilan tarbiya maqsadida aloqa o`rnatishi. Uning ma'lum pedagog vazifalariga ega ekanligi. O`quv tarbiya faoliyatini boshqarishi. Pedagogning o`quvchiga kasbiy ta'siri. Pedagogik munosabat madaniyati (talaffuz tarzi, nutq ohangi, to`g`ri nafas olish, ovozni qo`ya bilish). Og`zaki nutq mahorati. O'qituvchining kasbida ma'noli so`z, pedagogik ta'sir uslublari. Talab va uning turlari. Ularning tanlash uslublari. O`zaro fikr almashish bilan ta'sir ko`rsatish vositalari. Pedagogik munosabat usullarida o`qituvchilarning faol, tezkor, o`ta faol bo`lishiga erishish xususiyatlari. Tashabbuskor o`quvchilar bilan bo`ladigan muloqotlarni individual tarzda o`rnatish, vazifalar qo`yish, o`quvchilariga haddan ortiq baholar qo`yish, xayoliy munosabat modellarini qurish.

Pedagogning ijodiy kayfiyatini boshqarishning asosiy yo`nalishlari

O'qituvchining his-hayajonni ifodalaydigan harakatlari haqida. O'qituvchining gavda tutishi, mimika, ishora, nigohining muhimligi. O`quvchilarning o`qituvchi nigohidan ta'sirlanishi. Ko`z yordamida hol-ahvol, kayfiyat haqida eng aniq ma'lumotlar yetkazib berilishi.

O`qituvchining g`azablangan, noxush kayfiyatini o`quvchilar tomonidan his qilish. O`qituvchining gavdasini «yopiq» tutishi (u gavdaning oldini berkitib, fazoda iloji boricha kam joy egallahsga harakat qiladi; «Napoleonning» gavda tutishi: tikka turish, qo`llar ko`krakda qovushtirilgan yoki o`tirib ikki qo`li iyakka taqalgan) ishonchsizlik, qo`silmashlik, tanqidni bildirishi. «Ochiq» gavda tutishlari (tikka turganda: qo`l kaftlari ochiq va tepaga qaratilgan; o`tirganda qo`llar yozilgan, oyoqqa uzatilgan) ishonch, rozilik, xayrixohlikni bildirishi.

Ovoz xususiyatlari. Ishtiyooq, quvonch va ishonchsizlikni baland ovoz bilan bildirish. g`azab, qo`rqish – ancha baland, qayg`u, g`am-g`ussa, horg`inlik odatda yumshoq pasaytirilgan ovoz bilan bildirish. Nutqning tezligida o`qituvchi tuyg`ulari. Tez nutq hayajon va tashvishni, past nutq g`amgin holat, manmanlik, horiganlikni bildirish haqida.

Tarbiyaviy ishda teatr pedagogikasining tarkibiy kismlari qo`llanishi

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish faqatgina pedagogik mahorat bilan chegaralanib qolmay, unda boshqa san'atlarga aloqador xususiyatlaridan foydalanish. Tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishda teatr pedagogikasi, ya`ni sahnaviylik talablari, so`z, harakat, musiqa, qo`sinq, nutq, harakatlarning aniq maqsadga qaratilganligi. O`quvchilarning dramatik harakatlari, ularning psixologik holatlarining tarbiyaviy ta'sirchanligi. Dramatik harakatlarda tarbiyaviy tadbir g`oyasini belgilab olish sahna ko`rinishidagi tadbirlarning ta'sirchanligini ta'minlash.

O`quvchi hayotida teatrlashtirilgan tadbirning o`rni va ahamiyati. Tarbiyaviy tadbirlarni o`tkazish metodikasi. qo`g`irchoq teatri, drama to`garagi, teatrga borish. Spektaklni ko`rish va uni muhokama qilish.

Badiiy tarbiya to`garaklaridan (dram to`garak, xor to`garagi, raqs to`garagi, rasm to`garagi, amaliy san`at) birida qatnashish. Badiiy havaskorlik to`garaklari kontsertlarining ahamiyati.

Jamoani shakllantirish metodikasi

Kishilik jamoasi paydo bo`lishi. Mutafakkirlar jamoasi haqida. «Jamoatchilik» so`zining tushunchasi va mohiyati (lotin tilidan olingen bo`lib, jamoaviy, umumiylilik, birlik degan ma`noni bildiradi). Jamoatchilik tushunchasi, dastavval jamoa bo`lib ishslash, xalq uchun mehnat qilish, shaxsiy manfaatni umum manfaatga bo`ysundirish, bir-birlariga beg`araz, o`rtoqlarcha yordam berish. Jamoatchilikning shaxsni rivojlantirishga ta'sir ko`rsatishi, shaxsning tarbiyalanishida o`zaro didalektik munosabati.

Inqiroz sharoitida jamoa va shaxsning o`zaro munosabati. Shaxsning rivojlanish faoliyatida jamoatchilikning tutgan o`rni, ahamiyati, mazmuni va xususiyati haqida. Jamoalarni tashkil qilish va uning tarbiyaviy ta'siri. Tarbiyachining talaba-yoshlar jamoasini tashkil qilishi, tarbiyalash va jipslashtirish borasidagi nazariy bilimlari. Ilg`or tajribalari, o`rtoqlik, do`stlik, o`zaro hamkorlik, hamjihatlik, o`z-o`zini tarbiyalash va boshqarish kabi jamoatchilik sifatlarini shakllantirish mahoratini o`zlashtirish haqida.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O`zbekistonning 2008 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2009 yildagi iqtisodiy islohotlarni

eng muhim ustuvor yo`nalishlariga doir ma'ruzasi va "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar" kitobida belgilangan vazifalar asosida jamoani shakllantirish masalalari.

Jamoada shaxsni tarbiyalash uslubiyoti

Jamoada shaxsni tarbiyalashga yakka tartibda yondashish. Inqiroz sharoitida jamoani boshqarish. Kishi shaxsini jamiyatdan, ijtimoiy holatdan ajralgan holda qarash mumkin emasligi. Kasb-hunar kollejlarining asosiy vazifasi o`quvchilarga fan asoslarini chuqur o`rgatish va shu o`rgatish va dars jarayonida ularni jamoa ruhida tarbiyalash muammolari haqida.

Jamo tarbiyasi (shaxsni tarbiyalash), dastavval oilada boshlanadi. Maktabda amalga oshirilishi. Jamoa tarbiyasi bevosita o`qituvchi rahbarligida olib borilishi. O`qituvchining jamoatchilik orasida o`qituvchining axloqiy sifati va pedagogik mahorati, uning ilmiy pedagogik va axloqiy obro`si, so`zi bilan ishining birligi, nazariy bilimga ega bo`lishi va o`quvchi ruhiyatini yaxshi bilishi haqida.

Yangi pedagogik texnologiyalar

Yangi pedagogik texnologiya tushunchasi va mohiyati. Pedagogik texnologiyalar haqida turli ta'riflar. Pedagogik texnologiya ta'larning tizimi usuli. Yangi pedagogik texnologiyalarini dars jarayonida ko`proq qo'llanilishi.

Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi. Zamonaviy dars berish metodlari. Interaktiv metodi. «Interaktiv» atamasi inglizcha «interactive» so`zidan olingan bo`lib, «o`zaro ta'sirlashish» degan ma`noni bildirishi. «Interaktiv» metodining biror faoliyat yoki muammoni o`zaro muloqotda o`zaro bahs-munozara, fikrlash, hamjihatlik bilan hal etishdagi ahamiyati. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida zamonaviy axborot texnologiyalari, ta'limi kompyuterlashtirish va kompyuterlash tarmoqlari tizimi haqida. Yangi asr informatsion texnologiyalar asri ekanligi.

"Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralar" kitobini o`rganish asosida pedagogik mahorat fanining oldida turgan vazifalar.

O`quv mashg`ulotlarini loyihalashtirish uslubiyoti

Pedagogik texnologiyaning o`ziga xos xususiyatlari. Ta'larning rejalshtirilgan maqsadiga erishishni kafolatlaydigan o`quv-bilish (o`zlashtirish) jarayonini loyihalashtirish.

Loyihalashtirishda motivlar (M), o`quvchining o`zlashtirish faoliyati (UF), o`zlashtirish jarayonini boshqarish (B). O`quvchining o`zlashtirish jarayonini boshqarish muallim yoki texnik vosita yordamida amalga oshirilishi.

"Motiv" tushunchasi ehtiyoj, intilish, mayl, qiziqish kabi ma'nolarini anglatishi. Motiv - kishini biror ish harakatni bajarishga undovchi da'vat, turtki. O`qituvchilar o`quvchilarda o`qishga motivlar hosil qilishga intilishlari, o`quv jarayonida uni hisobga olib motivni o`stirishlari va boshqarishlari haqida.

Loyihalashtirishda o`quv jarayonining maqsadni ko`zlash, joriy natijalarni diagnostik tekshirish, o`quv jarayonini alohida bo`laklarga ajratish, ta'lim

maqsadlarini umumiyligi holda belgilash; umumiyligi holda ifodalangan maqsadlarni oydinlashtirib, aniqroq, holatiga o'tish; o'quv amallari majmui, ya'ni o'qitish jarayoni; natijalarini baholash.

O'quv jarayonini bunday takrorlanuvchi tuzilishga va "modul" xarakterga ega ekanligiga xosligi.

Pedagogik texnologiya monitoringi va o'qitish piramidasi

Pedagogik texnologiya - ta'lim natijalarining diagnostikasi.

O'qitishning har bir shart-sharoitida aniq maqsadga erishishning qulay shakl, metod, usul va vostalarini tanlash.

Pedagogikada monitoring bu o'quv jarayonini uzlusiz, uzoq vaqt muttasil kuzatish va uni boshqarish. Pedagogik monitoring o'qituvchi va talabani to'g'ri harakat qilish uchun zarur axborotlar bilan ta'minlashi haqida. O'quv tarbiya jarayonining natijalari va qo'yilgan maqsadga erishishda ishlatiladigan vositalar.

Pedagogik texnologiyadan xabardor bo'lish. Ta'limda yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish. Ta'lim maqsadlarini aniqlash. Yakuniy nazorat. Nazorat og'zaki, yozma yoki test shaklida bo'lishi va ularning ahamiyati.

Ta'lim maqsadlriga erishish usullari

Ta'limning pedagogik texnologiya asosida qadamba-qadam o'zlashtirish.

O'quv materiali kichik-kichik bo`laklarga ajratib o'rghanish. Talaba to'g'ri yechgan yoki javob bergenidan darhol xabardor bo'lish.

Pedagog talabalar bilan muomalasi jarayonida ikki xil xissiy (ematsional) holat vujudga kelishi. Pedagogning ijobjiy hissiyotlari asosida o'zaro hamkorlikni tashkil etish qobiliyati. Pedagog talabalarga biror-bir narsani urgata olishi uchun ular bilan munosabatga kirishishi. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" kitobini o'rghanish asosida talim oldida turgan vazifalar.

O'qituvchi mahoratini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari

Inqiroz sharoitida o'qituvchi mahoratini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. O'qituvchi mahorati bu- bevosita pedagogik faoliyatni boshqarishning ustasi ekanligi. Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy tamoyillari. Pedagogik mehnat va pedagogik mahoratning uzviyiligi. Pedagogik mahoratni shakllantirishning asosiy vositalari.

Iqtisodiy sharoitda ta'lim-tarbiyadan ko`zda tutilayotgan maqsadga erishish. Talaba yoshlarning xilma-xil faoliyatlarini uyuştirish. Ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish. O'qituvchilar mahoratini oshirish, ularning falsafiy jihatdan keng fikrlovchi, yuksak mulohazali bo'lishlari. O'qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasb ekanligi. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallash va tajribalarga suyanish.

Dars jarayonida pedagog mahorati

Dars – pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni. O'qituvchining asosiy

pedagogik ehtiyoji – o`rgatish, yetkazib berish. Dars jarayonini tashkil qilish. Pedagogning o`quvchilarga bo`lgan talablari (aniq, samimi, ijobjiy). Dars mashg`ulotining sifatli tomonlari. Pedagogning dars o`tishdagi madaniyati. Dars jarayonida o`qituvchi oldidagi muammolar. O`quvchilarni bilim olishga jalb qilish, ularni olg`a harakatlantirish. O`qituvchi va o`quvchilarning birgalikdagi mehnati. Pedagogik hamkorlik. Darsda o`quvchidagi qo`rquvni yo`qotish, uni erkinroq, dadilroq bilish, o`zini kuchiga ishontirish, unga jiddiy, ijod qilishga qodir shaxs sifatida qarash.

O`quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda o`qituvchining mahorati. O`qituvchining o`z predmetini o`quvchilarga qiziqarli qilib ko`rsata olish qobiliyati. O`quvchilarning o`qishga qiziqishini vujudga keltirish, uni rivojlantirish. Tajribali o`qituvchilarning ijodkorligi. O`qituvchining o`qitish jarayonida har xil qiziqarli vositalar, o`yinlardan, masalalardan, misollardan foydalanishi. Darsdagi ish formalarining turli-tumanligi.

Jaxon moliyaviy inqirozi sharoitida ta`lim tizimida muammoli vaziyatlarni yaratish asosida darslarni tashkil etish.

Pedagogning tarbiyachilik mahorati

Pedagogning ruhiy, siyosiy, ma'naviy madaniyati. Talabalarning aqliy salohiyatining rivojlantirishda pedagogning ahamiyati. O`qituvchi faoliyatini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. Talabalarning tarbiyalanganlik darajasini aniqlash metodikasi.

O`ziga va dunyoga shaxs munosabatini shakllantirish. Har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash. Ijtimoiy obro`ga ega bo`lgan shaxsni tarbiyalash. Insonni madaniyatga bo`lgan munosabatini shakllantirish. Shaxsda fuqarolik madaniyatini tarbiyalash, o`z-o`ziga ishonch, mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, insonlarga yordam bera oladigan shaxsni rivojlantirish.

T.T. – tarbiyaning ta'siri, T.Sh. – tarbiyalanuvchining shaxsi, T.M. – shaxsga ta'sir qiluvchi omillarga tarbiyalanuvchining munosabati, Sh.S. – shaxsni shakllantirish sifatlari, S – sabablar, O – tarbiyalanuvchining odobi. Tarbiya yo`nalishlari – ma'naviy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, fuqarolik, millatlararo, vatanparvarlik, huquqiy, ekologik.

Pedagogik qobiliyat

Qobiliyat haqida asosiy tushuncha. Pedagogik qobiliyatlarning asosiy turlari. Tushuntira olish qobiliyati, kuzatuvchanlik qobiliyati. Nutq qobiliyati. Tashkilotchilik qobiliyati. Kasbiy qobiliyat-har bir shaxsning bilim, malaka orttirish xususiyatlari bilan bog`liqligi.

Qobiliyatlar bilim, malakalar, ko`nikmalarda namoyon bo`lishi. Bilish qobiliyatida fanni keng va chuqurroq bilishi. O`z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib borish. Tushuntira olish qobiliyatida o`qituvchining o`quv materialini o`quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqtirishi.

Kuzatuvchanlik qobiliyatida o`qituvchining tarbiyalanuvchi ichki dunyosiga kira olishi. O`quvchi shaxsni va ruhiy holatlarini tushunish. Shuningdek, nutq

qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, obro` orttira olish qobiliyati, kelajakni ko`ra bilish qobiliyati haqida ma'lumotlar berish. Iqtisodiy inqiroz sharoitida iqtisodchi-pedagoglarning pedagogik qobiliyatini rivojlantirish.

Pedagog faoliyatida muloqot madaniyati

Pedagogik mahorat - bu kasbiy muloqot madaniyati ekanligi. Pedagogik muloqot. Muloqot madaniyati. Pedagog mahoratida amaliy konstruktiv masalalar, tashkilotchilik malakalari. Talabalarning individual faoliyatini uyuşdırish va ularning ijtimoiy faolligini oshirish.

Muomala kategoriyasi umumiyligi psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan biri. Shaxslararo munosabatning eng muhim mehanizmlari. Psixologiya fanida muomala kategoriyasi. Muomalaning eng muhim tarkibi muloqot. Muomala hamkorlik faoliyatining ko`p qirrali jarayoni. Muomalaning tarkibiy qismlari kommunikativ, muomalada hamkorlik faoliyati, interfaol (ikki tomonlama ta'sir) – muloqotga kirishuvchilarning o`zaro tasiri. Muloqot jarayonida o`zaro bir-birini idrok qilish, anglash. Muomala jarayonida o`z-o`zini va o`zgalarni hurmat qilish; o`z-o`zini va boshqalarning faoliyati, hulqini baholash; o`z-o`zini boshqarish; o`z-o`zini nazorat va o`zgalarni nazorat kilish; o`z-o`zini takomillashtirish va yangi fazilatlarni egallash haqida.

Kasb ta'limi mazmuni

Inqiroz sharoitida kasbiy ta'limi mazmuni. Kasbiy ta'limning tamoyillari. Kasbiy ta'limning samaradorlik mezoni. Kasb ta'limida o`quv materialining tuzilishi. Ta'lim oluvchilarning o`rganishi kerak bo`lgan mavzuni, uning tuzilishini namoyish qilish va sharhlash vositasida yangi material bilan tanishtirish; o`quv elementlarini o`rganish ketma-ketligi va usullari; ta'lim oluvchilar, mavzu yakuniga etganda egallashi zarur bo`lgan bilimlar, mahorat va ko`nikmalar to`g`risida axborot; testlar va amaliy topshirqlarning variantlarini, ularni baholash mezonlarini taqdim etish, ya'ni yakuniy nazoratni «ochiqligini» ta'minlash haqida mavzuni o`tish paytida o`zlashtirilgan bilimlar va faoliyat turlari keyinchalik ta'lim jarayonida va yoki kelgusi kasbiy faoliyatida qaerda kerak bo`lishi to`g`risida axborotlar berish haqida.

Iqtisodchi-pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Jamiyat taraqqiyotida iqtisodchi-pedagog kadrlar tayyorlash ahamiyati. Malaka oshirish maqsad va vazifalari. Iqtisodchi pedagog kadrlar tayyorlash malakasini oshirish. Iqtisodchi pedagog kadrlar tayyorlashda qo`llaniladigan metodlar. Malaka oshirish ishining kadrlar bilan bog`liqligi. Keng qamrovli va yuqori malakali iqtisodchi kadrlar tayyorlashga qo`yiladigan talablar. Malaka oshirishda o`quv jarayonini tashkil etishning shakllari. O`qitishni tashkil etish metodlari. O`quv predmetining xususiyatlari, o`quv-moddiy bazasi. Ilmiy tadqiqot ishlari. Iqtisodiy inqiroz sharoitida iqtisodchi-pedagog kadrlar tayyorlash muammolari.

Dars jarayonini tashkil etishda pedagogik mahorat

Dars haqida tushuncha va uning turlari. Darsni tashkil etish usullari. Dars

jarayonida temaga oid fan yangiliklaring yangi kashfiyotlar bilan tanishtirish. O`quvchilarni qiziqtirgan masalalar, ba`zi yangiliklar yuzasidan, mustaqil ishlashlari uchun vazifalar berib borish. Bayon qilishda o`qituvchining nutqi birdan-bir bilim manbai ekanligi va uning ravon, tushunarli bo`lishi. O`qituvchi o`quv materialini emotsional ifoda qilib berishi. Dars davomida tushunilishi qiyin bo`lgan so`zlarga izoh berish, qoida va qonunlarning ta'rifi sodda, ixcham va tushunarli bo`lishini ta'minlash metodikasi haqida.

Mehnat va kasb ta'limi uslubiyoti

Inqiroz sharoitida mehnat va kasb ta'limi. Uning yo`nalishlari. Mehnat va kasb faoliyatida inson organizmining fiziologik imkoniyatlari. Amaliy faoliyat sohasiga kirishish. Mehnat va kasb ta'limi jarayonida o`quvchilarni tarbiyalash, kamol toptirish va kasbga yo`naltirish shaxsning mehnatga moslashuv mezonlari.

Tarbiyani mehnat bilan bog`lab olib borish. Mehnatning tarbiyaviy ta'siri. Mehnat yosh avlod tarbiyasi uchun juda katta vosita ekanligi. O`quv faoliyati va ijtimoiy foydali mehnat. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berishda, dunyoqarashini vujudga keltirishdagi muhimligi. Oila va uzlucksiz ta'lim tizimida mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash.

Shaxsning bilim, ko`nikma va malakalarini shakllantirishda pedagogning pedagogik mahorati

Bilim, ko`nikma va malaka haqida tushuncha. Kasb, bilim va malakalarini shakllantirish uslublari va ularni rivojlantirishda pedagogning pedagogik mahorati.

«Pedagogik mahorat» fani talabaning ma'naviy shakllanishi, uning shaxs sifatida rivojlanishi, komil insonni voyaga yetkazish konuniyatlarini, mutaxassislik asoslari o`rgatuvchi ustuvor fanlardan biri ekanligi. Bo`lajak iqtisodchi pedagoglarda fan asoslari ongli egallashi intellektual-ma'naviy rivojlanishi, insoniyat erishgan boy kadriyatlarga suyangan holda ushbu fanining o`ziga xos ilmiy-amaliy asoslari. Bola, o`quvchi, talaba tushunchalarini, ma'naviy, fiziologik, psixologik va estetik asoslari. Kadrlar tayyorlash milliy modelini hayotga joriy qilish. Talabalarni ijodiy fikrlash metoddari, mutaxassislik pedagogikasi asoslari bilan qurollantirish.

Amaliy mashg`ulotlarni tashkil etishda pedagogning pedagogik mahorati

Amaliy mashg`ulot haqida tushuncha. Amaliy mashg`ulotni o`tkazish uslubiyoti. Amaliy mashg`ulot va uning o`quv jarayonida tutgan o`rni. Amaliy dars funktsiyalari. Amaliy darsni tashkil etish va o`tishda o`qituvchining pedagogik mahorati.

Seminar darsi talabalarning bilim olishlari, uni puxta o`zlashtirishlari va olgan bilimlarini kelgusida real hayotda qo'llashni o`rganishlari. Seminar darsining funktsiyalari: talabalarga professional ta'lim berish va tarbiyalash; mustaqil ishslash malakasini o`stirish; talabalarni mantiqiy fikrlashga, nutq so`zlash, ilmiy munozaralar olib borishga o`rgatish; mustaqil fikr yuritish va o`z fikrini o`rtoqlashishga o`rgatish; o`rtoqlari fikrini tanqidiy nuqtai nazardan baholash, talabalar bilimini nazorat qilish

va baholash xususiyatlari va ularning metodikasi haqida.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uslubiyoti

"Ta'lim to`g`risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga tadbiq etish. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari. Ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish uslublari.

Pedagogik kuzatish usuli, suhbat usuli, bolalar ijodini o`rganish usuli, so`rovnama, test usuli, kasb-hunar kollejlari hujjatlarini tahlil qilish usuli, eksperiment, tajriba, sinov usuli, statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usuli, matematika-statistika usuli. Ilmiy-tadqiqot usullarining yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va o`qitishdagi ahamiyati. Pedagogik mahorat fanining ilmiy-tadqiqot usullari fan mazmunini takomillashtirishdagi o`rni.

3. O`quv kursi bo`yicha ma'ruza va amaliy mashg`ulotlarda o`qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning kontseptual asoslari

O`zbekiston o`z istiqlol va taraqqiyot yo`lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o`zining munosib o`rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo`lini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda chuqr islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta'lif tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog`liqdir.

Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg`or davlatlar ta'limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. 1997 yilda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining “Ta'lim to`g`risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” milliy ta'lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollarini belgilovchi hujjat sifatida bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga zamin yaratdi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati axborot texnologiyalari dasturiy vositalari, ma'lumotlarning axborot bazalari, multimedia asosida ta'lim jarayonini axborotlashtirish, uzlusiz ta'lim tizimini axborot tarmog`i bilan ta'minlash asosida jahon andozalariga mos keladigan kadrlar tayyorlash masalalariga e'tiborni susaytirmay kelmoqda. Uzlusiz ta'limga o`tish sharoitida ta'lim muassasalarining bu sohadagi asosiy vazifalarini aniqlab, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Kompyuterlash tizimini yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlar to`g`risida»dagi qarorida pedagogika fani va amaliyoti oldiga «... o`rtalik va oliy ta'limning ta'lim standartlariga muvofiq ravishda elektron o`qitish bazasini yaratish, ta'lim muassasalarining axborot infratuzilmasini shakllantirish, barcha o`quv muassasalarida ingliz tilini chuqr o`rgatish, shuningdek, respublika axborot tarmog`ida lotin alifbosiga asoslangan o`zbek tilidan foydalanishning standartlashtirilgan mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish dasturiy chora-tadbirlar» ni ishlab chiqish yuklatilgan.

Biroq, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish to`g`risida»gi PF-3080-sonli farmoni va ushbu farmonni bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 8-iyunda «2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish dasturi to`g`risida»gi qarorida juda to`g`ri ta'kidlanganidek, uzlusiz ta'lim tizimida, shu jumladan, oliy o`quv yurtida ta'lim jarayonini tashkil etishning hozirgi holati ilmiy-texnika, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tez o'sib boruvchi talablariga to`liq javob bermaydi. Boshqacha qilib aytganda, aksariyat ko`pchilik mutaxassislar tayyorgarligida axborot texnologiyalari o`qitishning modulli tizimi uchun xos bo`lgan sifatlar - bilimlarning harakatchanligi, mustaqil va tanqidiy fikrlash, har qanday faoliyatda ijodiylik, moslashuvchanlik va

h.k. sust ifodalangan.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko`rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo`lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni echimini topib ularni amalda keng qo`llash oliv ta'lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o`quv jarayonini yaxshilash, o`quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o`qitishning zamонавиу pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o`qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

Ta'lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo`ladi. Bu o`qituvchining mahoratinigina emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo`lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo`lsa, ta'lim umumiylikka egadir. Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim ob'ektiv borliqdagi voqeа-hodisalarning in'ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo`ladigan tushunchalar yig`indisi sifatida namoyon bo`ladi. Ta'limdagи sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo`ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo`lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta'lim bir xildir. O`qituvchi bilim emas, balki ta'lim beradi. Talaba esa ana shu ta'lim jarayonida bilimga ega bo`ladi. Buning uchun u mustaqil o`qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo`ladi, eshitganlari va o`qitganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo`ladi.

O`quv jarayoni bilan bog`liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o`qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg`or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo`llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o`ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo`yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishslash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o`rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi.

Aytilganlardan kelib chiqqan holda, «Pedagogik mahorat» o`quv kursi bo`yicha ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy kontseptual yondoshuvlarni keltiramiz:

Shaxsga yo`naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o`z mohiyatiga ko`ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlanishlarini ko`zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqgan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog`i lozim: jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo`naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o`quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga

yo`naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o`quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o`zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z-o`zini faollashtirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratlilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o`rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo`llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo`llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llash.

Keltirilgan kontseptual yo`riqlarga asoslangan holda, «Kompyuter modellashtirish» kursining maqsadi, tuzilmasi, o`quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqgan holda, ma'lum sharoit va o`quv rejasida o`rnatilgan vaqt oralig`ida o`qitishni, kommunikatsiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalari tanlovi amalga oshirildi.

O`qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullarii, amaliy ishslash usuli.

O`qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o`zaro o`rganishga asolangan frontal, kollektiv va guruh.

O`qitish vositalari o`qitishning an'anaviy shakllari (garslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o`zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so`rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o`qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o`quv mashg`uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko`rinishidagi o`quv mashg`ulotlarini rejallashtirish, qo`yilgan maqsadga erishishda o`qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg`ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o`quv mashg`ulotida ham butun kurs davomida ham o`qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

KURS BO`YICHA MONITORING VA MUSTAQIL ISHNI TASHKIL QILISH TEXNOLOGIYASI

1. Bilimlarni baholash va uning monitoringi

1. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi.

«Pedagogik mahorat» fani bo`yicha talabalarining bilim saviyasi va o`zlashtirish darajasining Davlat ta`lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o`tkazish nazarda tutiladi:

Joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo`yicha bilim va amaliy ko`nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat mazkur fan xususiyatidan kelib chiqqan holda ma'ruza va amaliy mashg`ulotlarda quyidagicha amalga oshiriladi:

- barcha mavzular bo`yicha olingan bilimlarni og`zaki so`rash;
- konseptlarni tekshirish;
- test topshiriqlarini olish;
- uy vazifalarini tekshirish;
- keys-stadilarni yechish;
- esse, ijodiy ishlar, topshiriqnomalarni tekshirish;

Oraliq nazorat (ON) – institut o`quv jarayoni grafigi asosida o`tkaziladigan, mazkur fanning bir necha mavzularini o`z ichiga oladigan nazorat shakli hisoblanadi. «Pedagogik mahorat» fani bo`yicha oraliq nazoratlar 2010-2011 o`quv yilining 1-semestriddagi 9 va 17 xaftalarida o`tkaziladi. Ushbu fan bo`yicha ON 2 marotaba o`tkazilishi rejalashtirilgan.

1-ON yozma ish ko`rinishida 3 ta topshiriqdan iborat bo`ladi.

2-ON yozma ish ko`rinishida bo`lib, bunda 2 ta topshiriq savolnoma hamda 1 ijodiy esse ko`rinishidagi mustaqil topshiriq beriladi.

Oraliq nazorat savolnomalari yangi o`quv yili boshlanishi bilan kafedra professor-o`qituvchilari tomonidan tuziladi va kafedra majlisida tasdiqlanadi. Tasdiqlangan oraliq nazorat savolnomalari oldindan talabalarga tarqatiladi.

Yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida mazkur fan bo`yicha nazariy va amaliy ko`nikmalarni talabalar tomonidan o`zlashtirish darajasini baholash usuli. Mazkur fandan yakuniy nazorat semestr oxiridagi ikki xafka davomida o`quv uslubiy boshqarma tomonidan tuzilgan grafik asosida fanga ajratilgan soatlar va auditoriyada yozma ish shaklida o`tkaziladi.

Fanga ajratilgan o`quv soatlarining o`quv turlari bo`yicha taqsimoti

| Nº | M A V Z U L A R | Ballar | Mezonlar |
|----|---|--|---|
| 1 | “Pedagogik mahorat”ning nazariy asoslari hamda uning o`qituvchi faoliyatida tutgan o`rni va ahamiyati | 1). 1,4-1,7 ball (55-70 foiz) 2). 1,75-2,1 ball (71-85 foiz) 3). 2,12-2,5 ball (86-100 foiz) | 1.Mavzuning mazmun mohiyati haqida tasavvurga ega. 2.Mavzuning mohiyatini anglaydi va tahlil etadi. 3.Mavzuni to`liq idrok etadi va mustaqil fikrlarini bayon etadi |

| | | | |
|---|---|--|--|
| 2 | Pedagogik texnika va uning komponentlari, tarkibiy qismlari | 1). 1,4-1,7 ball (55-70 foiz) 2). 1,75-2,1 ball (71-85 foiz) 3). 2,12-2,5 ball (86-100 foiz) | 1.Mavzuning mazmun mohiyati haqida tasavvurga ega. 2.Mavzuning mohiyatini anglaydi va tahlil etadi. 3.Mavzuni to`liq idrok etadi va mustaqil fikrlarini bayon etadi |
| 3 | Pedagogik odob-axloq va talaba xulq madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari | 1). 1,4-1,7 ball (55-70 foiz) 2). 1,75-2,1 ball (71-85 foiz) 3). 2,12-2,5 ball (86-100 foiz) | 1.Mavzuning mazmun mohiyati haqida tasavvurga ega. 2.Mavzuning mohiyatini anglaydi va tahlil etadi. 3.Mavzuni to`liq idrok etadi va mustaqil fikrlarini bayon etadi |
| 4 | Pedagog mahoratini tashkil etishning shart sharoitlari | 1). 4,2-5,2 ball (55-70 foiz) 2). 5,3-6,3 ball (71-85 foiz) 3). 6,4-7,5 ball (86-100 foiz) | 1.Pedagogik mahoratni tashkil etish shartlari haqida tasavvurga ega, mustaqil ish bajarilmagan. 2.Mavzuni mohiyatini tushungan mustaqil ishni qisman bajargan. 3.Mavzu yuzasidan erkin fikr bildiradi, mustaqil ishni to`liq bajaradi. |
| 5 | Dars jarayonida pedagogning mahorati. O`qituvchining tarbiyachilik mahorati | 1). 1,4-1,7 ball (56-70 foiz) 2). 1,75-2,1 ball (71-85 foiz) 3). 2,12-2,5 ball (86-100 foiz) | 1.Mavzuning mazmun mohiyati haqida tasavvurga ega. 2.Mavzuning mohiyatini anglaydi va tahlil etadi. 3.Mavzuni to`liq idrok etadi va mustaqil fikrlarini bayon etadi |
| 6 | Pedagog faoliyatida pedagogik tajriba to`plash | 1).4,2-5,2 ball (56-70 foiz) 2). 5,3-6,3 ball (71-85 foiz) 3). 6,4-7,5 ball (86-100 foiz) | 1.Pedagogik tajriba haqida tasavvurga ega, mustaqil ish bajarilmagan. 2.Mavzuni mohiyatini tushungan mustaqil ishni qisman bajargan. 3.Mavzu yuzasidan erkin fikr bildiradi, mustaqil |
| 7 | O`quv jarayonida pedagogik texnologiya | 1).4,2-5,2 ball (56-70 foiz) 2). 5,3-6,3 ball (71-85 foiz) 3). 6,4-7,5 ball (86-100 foiz) | 1.Pedagogik texnologiyalar haqida tasavvurga ega, mustaqil ish bajarilmagan. 2.Mavzuni mohitini tushungan mustaqil ishni qisman bajargan. 3.Mavzu yuzasidan erkin fikr bildiradi, mustaqil |
| 8 | Pedagogik qobiliyat Pedagogning kommunikativ qobiliyatları | 1). 1,4-1,7 ball (56-70 foiz) 2). 1,75-2,1 ball (71-85 foiz) | 1.Pedagogik kobiliyat haqida tasavvurga ega, mustaqil ish bajarilmagan. 2.Mavzuni mohiyatini tushungan |

| | | | |
|----|---|---|--|
| | | 3). 2,12-2,5 ball (86-100 foiz) | mustaqil ishni qisman bajargan. 3.Mavzu yuzasidan erkin fikr bildiradi, mustaqil |
| 9 | Pedagoglarning tarbiyalanuvchilar bilan muomalasi | 1). 1,4-1,7 ball (56-70 foiz) 2). 1,75-2,1 ball (71-85 foiz) 3). 2,12-2,5 ball (86-100 foiz) | 1.Mavzuning mazmun mohiyati haqida tasavvurga ega. 2.Mavzuning mohiyatini anglaydi va tahlil etadi. 3.Mavzuni to`liq idrok etadi va mustaqil |
| 10 | O`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi muloqot | 1). 1,4-1,7 ball (56-70 foiz) 2). 1,75-2,1 ball (71-85 foiz) 3). 2,12-2,5 ball (86-100 foiz) | 1.Mavzuning mazmun mohiyati haqida tasavvurga ega. 2.Mavzuning mohiyatini anglaydi va tahlil etadi. 3.Mavzuni to`liq idrok etadi va mustaqil |

BAHOLASH MEZONLARI

«Pedagogik mahorat» fani bo`yicha talabalarning bilim saviyasi, ko`nikma va malakalari nazorat qilishning reyting tizimi asosida ballarda ifodalanadi.

Talaba mazkur fan bo`yicha yig`ishi mumkin bo`lgan maksimal ball – 100 ball bo`lib, u quyidagicha taqsimot qilinadi:

- joriy nazorat – 40 ball;
- oraliq nazorat – 30 ball;
- yakuniy nazorat – 30 ball;

Fan bo`yicha joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan balning 55 foizi saralash ball etib belgilanadi. Har bir nazorat turidagi saralash balidan kam ball to`plagan talaba akademik qarzdor talaba hisoblanadi.

| No | Mezonlar | Har bir topshiriq uchun | Maksimal ball |
|----|---|---|------------------|
| 1 | Talaba faolligi (munozaralarga ishtirok etishi, taqdimot tayyorlashi) | Har bir javobga - 0,5 ball Har bir taqdimot uchun – 2 ball | 8 ball 4 ball |
| 2 | Mavzular bo`yicha to`liq konspekt yozish | O`quv materiallarini to`liq konspektlashtirib borgani uchun – 3 ball | 3 ball |
| 3 | Testlarni yechish | Har bir yechilgan to`g`ri test uchun - 0,2 ball | 6 ball |
| 4 | Uy vazifasini bajarish (o`quv topshiriqlari, pedagogik masalalar, nazorat savolnomalari) | Har bir to`g`ri bajarilgan uy vazifikasi uchun - 1 ball | 4 ball |
| 5 | Mustaqil ish, Prezentatsiya (keys, o`quv loyihasi, ijodiy esse, dars ishlanmasi, ta'lrim texnologiyasi) | Har bir bajarilgan mustaqil ish va himoya qilgani uchun 5 – ball (talaba mustaqil topshiriqlardan birini o`zi tanlaydi) | 15 ball |

Joriy nazoratda talabalar o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagicha taqsimlanadi:

a) 35 – 40 ballgacha joriy o`zlashtirish «a'lo» baholanadi

b) 29 - 34 ballgacha joriy o`zlashtirish «yaxshi» baholanadi

v) 22-28 ballgacha joriy o`zlashtirish «qoniqarli» baholanadi.

g) 0-21 ball bo`lganda talaba mazkur nazorat turi bo`yicha yetarli ball to`plamagan deb xulosa qilinib, ushbu fan bo`yicha akademik qarzdor hisoblanadi.

Oraliq nazoratdagi ballar taqsimoti:

| Oraliq nazorat turlari | o`tkaziladigan muddat | O`zlashtirish ko`rsatkichlari | Baholash mezonlari |
|--------------------------------|------------------------|-------------------------------|---|
| Birinchi oraliq nazorat (1-ON) | 2010 yil 26-31 oktyabr | 9-10 ball | <ul style="list-style-type: none"> - nazariy savollarga javob berish (3 ball) - Topshiriqni bajarish (4 ballgacha) - 10-11 ta testni to`g`ri yechish (2-3 ballgacha) |
| | | 11-12 ball | <ul style="list-style-type: none"> - nazariy savollarga javob berish (4 ball) - Topshiriqni bajarish (4 ballgacha) - 12-14 ta testni to`g`ri yechish (3-4 ballgacha) |
| | | 13-15 ball | <ul style="list-style-type: none"> - nazariy savollarga javob berish (5 ball) - Topshiriqni bajarish (5 ballgacha) - 15-16 ta testni to`g`ri yechish (4-5 ballgacha) |
| Ikkinchi oraliq nazorat (2-ON) | 2010 yil 21-26 dekabr | 9-10 ball | <ul style="list-style-type: none"> - nazariy savollarga javob berish (3 ball) - Topshiriqni bajarish (3 ballgacha) - mustaqil berilgan topshiriqni bajarish (3-4 ballgacha) |
| | | 11-12 ball | <ul style="list-style-type: none"> - nazariy savollarga javob berish (4 ball) - mustaqil berilgan topshiriqni bajarish (4 ballgacha) - 12-14 ta testni to`g`ri yechish (3-4 ballgacha) |
| | | 13-15 ball | <ul style="list-style-type: none"> - nazariy savollarga javob berish (5 ball) - Topshiriqni bajarish (5 ballgacha) - mustaqil berilgan topshiriqni bajarish (4-5 ballgacha) |

Har bir ON bo`yicha 0-8 ball to`plagan talaba mazkur nazorat turi bo`yicha yetarli ball yig`magan deb xulosa qilinib, umumiy 18 balldan kam bo`lganda ushbu fan bo`yicha akademik qarzdor hisoblanadi

Yakuniy nazoratda ballar taqsimoti

JN va ON ga ajratilgan umumiy baldan saralash balini to`plagan talabaga yakuniy nazoratda ishtirok etish xuquqi beriladi. Yakuniy nazoratdagi variantlar har bir talabaga takrorlanmaydigan, alohida tuzilib, har biri 5 ta topshiriqdan iborat bo`ladi.

Yakuniy nazoratdagi yozma ishlarni baholash mezonlari har bir topshiriqqa maksimum 6 balldan belgilanadi.

| Yakuniy nazorat | O`tkazish muddati | O`zlashtirish ko`rsatkichlari | Baholash mezonlari |
|-----------------|--------------------------|-------------------------------|---|
| | 22-27 fevral 2011 yil | 0-16 ball | Talaba 3 tadan kam topshiriqni bajargan bo`lib, ushbu fan bo`yicha akademik qarzdor hisoblanadi |
| | | 17-21 ball | Talaba 3 ta topshiriqni to`liq, 4-topshiriqni qisman bajargan bo`lishi kerak. |
| | | 22-25 ball | Talaba 4 ta topshiriqni to`liq, 5-topshiriqni qisman bajargan bo`lishi kerak. |
| | | 26-30 ball | Talaba 5 topshiriqni to`liq bajarishi kerak (5 ta topshiriqni 3 nazariy savollar, 2 tasi mustaqil o`quv topshiriq |

Yozma ishlarni professor-o`qituvchilar tegishli muddatda tekshirib, baholarni e'lon qilishlari va qaydnomalarni to`ldirishlari shart.

«Pedagogik mahorat» fani bo`yicha mustaqil ishlar joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali nazorat qilinadi va baholanadi?

Ixtisoslik fani bo`yicha to`rt darajali nazorat ishlab chiqish-5 ball;

Ixtisoslik fani bo`yicha biror mavzuga aniqlashtirilgan maqsadlarni ishlab chiqish-5 ball;

Ixtisoslik fani bo`yicha muammoli vaziyatlarni ishlab chiqish-5 ball

Ixtisoslik fanining biror mavzusiga texnologik ishlanma tayyorlash -5 ball.

Talaba JN va ON lardan biror turi bo`yicha o`z vaqtida uzrli sabablarga ko`ra ball to`play olmasa, qayta o`zlashtirish uchun keyingi shu nazorat turigacha bo`lgan muddat beriladi.

Akademik qarzdor talabalarga qayta o`zlashtirishi uchun semestr tugaganidan keyin ikki hafta muhlat beriladi. Kafedraning tegishli professor-o`qituvchilariga qarzdor talabalar bilan ishslash vazifasi yuklatilib, u maxsus jadval asosida amalga oshiriladi.

2. Auditoriyadan tashqari bajariladigan individual mustaqil ish

MA'RUZA TINGLASH VA QAYD QILISH

Mustaqil ta'lif jarayonida ma'ruza tinglash va qayd qilib borish asosiy ko`rinishlardan biri hisoblanadi.

Ma'ruzani tinglash, qayd qilish jarayonida ma'ruza manbalari varaqning bir tarafiga, ikkinchi tarafiga joy qoldirilgan holda yoziladi.

Ikkinci tarafiga esa talaba tomonidan chiqarilgan xulosalar, mulohazalar, ularda paydo bo`lgan savollar, savollarga javob variantlari, faktlar va xar xil belgilar qo'yishni tavsiya qilinadi. Bu maqsadda ba'zan keng hoshiyalar qoldiriladi.

Talabalar ma'ruza davomida to`liq va batafsil yozishlari shart emas. O`z navbatida ko`pchilik o`qituvchilar o`quv kitoblarida berilgandan farq qiluvchi asosiy holatlarni – xulosa, kriteriyalar, aksioma, qoida, postulat, paradoks, paradigma, kontseptsiya, holat va h.larni yozdirib borishadi.

Ilk ma'ruzalar davomida ataylab bo`sht qoldirilgan joy-hoshiyalar qiziqish uyg`otgan savollarni ularga javob variantlarini yozib olish, o`ylayotgan fikrlarni izoh etish, o`qituvchi va talabalar bilan bo`lgan suhbat va dialoglar, mulohazalar, «minbariga» aylantirish kerak. Ma'ruzaning boshlanishidanoq nazorat tekshiruv savollari beriladi. Savolga javobni biror talaba ma'ruza tarzda bayon etadi. Ushbu javobni qolgan talabalar yozib olishadi.

Hamma o`qituvchilar yangi mavzuning kirish qismini oldingi mavzuning bog`lovchi savollar bilan boshlashga tayyor bo`lishi kerak. Jumladan:

- O`tilgan mavzu yuzasidan qanday xulosalar oldingiz?,
- qaysi faktlar mavzuni yetarli yorita oladi? va h.k.

Bu vaqtida berilgan fikrlarni talabalar varaq hoshiyalariga yozib borishadi.

Ma'ruzalar talabalar tomonidan o`zlariga tushunarli tarzda turlicha shaklda yozilishi mumkin. Masalan: ba'zi talabalar eng asosiy fikrlarni rangli qalamarda belgilashadi, ba'zilar esa bir chetga «chiroqcha» belgilarini qo'yib chiqishadi.

Ma'ruza tinglash va qayd qilib borish talabalarining o`z ustilarida ishslashlarining eng samarali usuli hisoblanadi.

Bu usul bilan talabalar adabiyot bilan ishslash, reja tuzish, zamonaviy texnikani qo'llagan holda ma'lumot saqlash, imtihonlarga tayyorlanish, kurs ishlarini bajarish, referatlar tayyorlash kabi faoliyatlarga yo'llanma oladilar. Aynan ma'urazalarni faol eshitishi va qayd qilib borish talabalarning mustaqil izlanishlariga jalb qiladi. Ma'ruza tinglashdan oldin unga tayyorgarlik ko`rish kerak. Bunda umumiyoq o`quv reja bilan tanishib, oldingi darslardagi ma'ruza qaydlarini ko`zdan kechirish, manbalarni fikran takrorlash uchun o`zini psixologik tayyorlash lozim.

Ma'ruza tinglash – intellektual faoliyatning murakkab turidir. Uning muvaffaqiyati birinchidan, umumiyoq «tinglay olish» bilan, ikkinchidan, daftarga yozib borish bilan birga materialni o`zlashtira olish bilan bog`liqdir. Ma'ruzani yozib olish-asosiy narsalarga e'tibor qaratishga, ma'ruza jarayonida eshitilgan narsalarni o`ylab ko`rishga, o`qituvchi tomonidan izoh qilinayotgan material ketma-ketligini mantiqiy nuqtai-nazardan tushunishga yordam beradi.

Bunday usul ayniqsa o`quv yili boshlarida talabalarga birmuncha qiyinlik qilishi mumkin va quyidagi xatoliklarga yo`l qo`yishlari mumkin: ba'zilar ma'ruzani so`zma-so`z yozib olishga xarakat qiladi, ba'zi talabalar duch kelgan joydan yozib ketaveradi va h.k. Bunday xatolarga yo`l qo`ymaslik uchun quyidagi bir necha qoidalardan foydalinish maqsadga muvofiqliqdir:

1). Mavzu, maqsad, ma'ruza rejasи, foydalilanilgan adabiyotlar berilgandan keyin ularning qanday izoh etilishi, ketma-ketligi, qanday ifoda etilishi, mulohazalarni mazmunini nazardan qochirmaslik kerak.

2). Asosiy ma'lumotlarni, mustaqil ko`rib chiqish uchun o`qituvchi tomonidan berilgan savollarni yozib olish kerak.

3). Yozuvlarning aniq bo`lishiga ularning ketma-ketligiga mavzu, paragraf savol va savolchalarini, ajratib yozishga harakat qilish kerak. (Unda tagiga chizish usulidan, belgilash ya`ni xarflar va raqamlardan foydalinish maqsadga muvofiqliqdir).

Qanday fan o`rganilayotganiga qarab ma'ruza yozishayotganlarida asosan amaliy ko`nikma va malakalarga e'tibor berishlari lozim.

Ma'ruzani lo`nda va qisqa tushunarli tarzda yozib borgan ma'qul. Har bir talaba o`ziga qulay qisqartirishlar tizimini ishlab chiqishi mumkin. Juda yaxshi yozilgan ma'ruzani ham mantiqiy va xulosaviy nuqtai nazardan qayta ko`rib chiqib, yozish mumkin.

Mustaqil ishslash davomida qo`shimcha adabiyotlardan, lug`atlardan foydalinish mumkin.

Mustaqil o`rganishda asosiy o`rinni ma'ruzani umumlashtiruvchi turli hildagi vazifalarni bajarish egallaydi. Masalan: mavzuga doir reja yoki tezis tuzish, savollarga javob berish, testlar ishlab chiqish, referat yozish mumkin.

Agar kirish ma'ruzasi kurs mazmuni, fanni o`rganishga kirish qismida o`qilsa (nimani?, qanday o`rganish kerak?), umumlashtiruvchi ma'ruza xulosa chiqarishga (nima uchun o`rganish kerak?) yordam beradi.

Umumlashtiruvchi ma'ruza oldin va hozirgi kunda mayjud bo`lgan biror bir masalani nazariy jixatdan ohib beradi.

Umumlashtiruvchi ma'ruza bilan ishslash davomida quyidagi savollarga javob topish mumkin:

- qanday tushunchalar bilan ko`proq ishslash kerak;
- qanday umumlashuv (predmet va hodisalarni fikran umumiyl jihatlarini birlashtirish) aniqlash mumkin;
- o`quv materiali va uni tizimlashtirish;
- qanday umumiyl qonunlar va tamoyillarni topish mumkin;
- matnni qanday material bilan to`ldirish mumkin;
- qanday va qaysi parametrлarga ko`ra ma'ruza materialini taqqoslovchi tahlilini o`tkazish mumkin va h.k.

Umumlashtiruvchi ma'ruzaning materiallari bilan ishslash tizimi ma'ruza matniga berilgan ba'zi topshiriqlarni bajarishga ham kiritiladi.

Topshiriqlarni uch darajaga bo`lish mumkin:

Reproduktiv darajali topshiriqlari: - umumlashtiruvchi ma'ruza rejasini tuzish, ma'ruza materialiga oid tezis ishlab chiqish.

Produktiv darajali topshiriqlari: - muammoli savollarga javob berish, sxema (namuna) asosida ma'ruzani qayd qilish, muammoning kelib chiqishini aniqlash.

Ijodiy darajali topshiriqlari: - mavzuga doir nazorat tekshiruv testlarini, referat yozish.

Kasb ta'limi yo`nalishida ta'lim olayotgan talabalariga fanga, shu jumladan pedagogik mahoratga tegishli to`liq ma'ruza matni berilmaydi. Unga pedagogika asoslari, didaktika va tarbiya asoslari nazariyasi, pedagogika tarixi va o`z mutaxassisligidan kelib chiqqan holda kasbiy yo`nalishdagi ma'ruzalar variantlari beriladi. Ularning hammasi umumlashtiruvchi bo`lib, ularda eng dolzarb muammolar yoritiladi.

KITOBLAR VA O`QUV ADABIYOTLARI BILAN ISHLASH.

Kitoblar va o`quv adabiyotlari bilan ishlash ko`nikma va malakalarini shakllantirish mustaqil ta'lim olishning asosiy ko`rinishi hisoblanadi. O`quv adabiyotlari bilan ishlashni barcha ta'lim oluvchilar yaxshi o`zlashtirgan bo`lishlari lozim. O`quv adabiyotlari deganda, darsliklar, o`quv qo'llanmalar, texnik adabiyotlar, ma'lumotlar, yo`riqnomalar va x.k. tushunish mumkin.

Darslik-talabalarga chuqurroq bilim olish va materialni yoki uning qismlarini mustahkamlash uchun ushbu materialni takrorlash imkonini beradi.

Haqiqatdan ham dars jarayonida darslik bo`yicha materialni mustaqil ravishda o`rganish bo`yicha topshiriqlar vaqt - vaqt bilan bo`lib tursa, talabalarda kitob bilan ishlash mahorati va ko`nikmalarini rivojlantiradi. Darslik bilan mustaqil ishlashni haddan tashqari ko`p hajmda uyga vazifa sifatida talabalarga yuklatilsa, ortiqcha zo`riqishga olib keladi. Bu talabalarda fanga bo`lgan qiziqishni kamaytiradi. Shuning uchun darsliklar bilan ishlash va boshqa o`quv adabiyotlari bilan tanishtirish mustaqil ishlash mahoratini va ko`nikmalarini talabalarda shakllantirish ishlarini o`qituvchi tomonidan o`qitishning hamma bosqichlarida: ya`ni yangi mavzuni tushuntirishda, bilimlarni oshirish va mustahkamlashda va uy topshiriqlarini tekshirishda olib borish kerak. Kasb ta'limi yo`nalishi bakalavr o`qituvchilari ta'lim olish jarayonida quyidagi mustaqil ishslash ko`nikmalarini egallashlari lozim: matnlarda, rasm va ko`rgazmali qurollarda, jadval va xaritalarda asosiysini ajratib olishni; ma'lumotlarni o`zlashtirishda mantiqiy aloqadorlik va bog`liqliklarni aniqlashni; o`rganilayotgan hodisalarini taqqoslashni, darsliklarning bir yoki bir necha qismlari bo`yicha umumlashtirish va xulosa chiqarishni bilishlari kerak. Mavzu bo`yicha yangi so`zlar va terminlar tuzishni, darslik bo`yicha alohida mavzuni o`rganishni, darslik matni bo`yicha reja, tezislardan tuzishni, darslik matnidan foydalananib masalalar tuzishni, darslikda ko`rsatib o`tilgan tajribalarni bajarishni bilishi kerak. Egallangan mahorat va ko`nikmalarni darsliklar bilan va boshqa turdag'i o`quv adabiyotlari bilan dars mobaynida, darsdan tashqari mashg`ulotlarda o`quv faoliyatlarini tashkil etish usullari bilangina takomillashtirish mumkin. Talabalar o`quv adabiyotlari bilan ishslash jarayonida ularda mustaqil ishslash qobiliyatlarini o`sib boradi. Talabalar mustaqil ishslash mahorati va ko`nikmalarini egallab borgan sari topshiriqlar mazmuni murakkablashib boradi.

Talabalar tomonidan reja tuzish, tezislar yozish, ma'ruzalar qayd qilish kabi ko`nikmalar egallangan bo`lsada, aniq fanlarni o`rganish jarayonida o`qituvchi tomonidan reja tuzish, tezis yozish haqida tushuncha berishi, ularning farqini ko`rsatib berishi, o`zaro bog`liqligini tushuntirib o`tishi kerak.

Talabalarga o`quv adabiyotlaridan konspekt yozib borish murakkab usullardan biri ekanligini va buni bajarish uchun avvalo reja, tezislarni tuzish ko`nikmalarini yaxshi o`zlashtirgan bo`lishlari lozimligini tushuntirishlari lozim. Buning uchun avval butun matnni o`qib berish, shundan keyin, uning mantiqiy yakunlangan qismlariga ajratish va har biriga sarlavha berish kerak. Rejaning har bir savolini o`rganilayotgan materialning asosiy qoidalari bilan qisqacha asoslab berish kerak. Konspekt tuzish misollar bilan to`ldirish maqsadga muvofiqdir.

Darslikdan konspekt yozish usullari daftarga yozib boriladi. Mashg`ulotlar mobaynida talabalarga materialning bir qismini mustaqil ravishda darslikdan o`rganish taklif etiladi. Buning uchun ularga ma'lum vaqt ajratiladi va o`qiganlari aosida konspekt tuzish topshiriladi. Bunday topshiriq o`qituvchiga talabalar reja, tezis, konspekt tuzishning nazariy asoslarini amalda qanday qo`llashlarini aniqlashga imkon beradi. Kitob bilan mustaqil ishlarni bajarish bo`yicha mashqlarga ko`proq vaqt ajratish zarur. Kitob bilan mustaqil ishslash juda samarali usuli faqat xotirani emas, balki o`quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini ham rivojlantiruvchi o`rganilayotgan topshiriqlarni bajarish hisoblanadi. Talabalarning o`rganilayotgan hodisalarini taqqoslash usullariga o`rgatish – umumdidaktik vazifa hisoblanadi. U har bir o`qituvchi tomonidan o`qitilayotgan fan mazmuniga qarab turlicha ko`rinishda bo`ladi.

Texnik kitoblarni o`qishga qo`yiladigan talablar.

Texnik adabiyotlarni o`qishga bir qator talablar qo`yiladi. Bu eng avvalo materialni rejali o`qishdir. Mustaqil o`qishda ketma – ketlikka, bir kitobni o`qishdan ikkinchi kitobni o`qishga o`tishda o`zaro bog`liqlik, qiziqtiradigan mavzusi bo`yicha bilimlar tizimi asosida rejaga ega bo`lishi kerak. Bir mavzudan boshqasiga o`tib kerakli maqsadga erishish uchun, talaba tomonidan ma'lum ketma – ketlikda o`qishga qaror qilingan kitoblar va maqolalar ro`yxatiga ega bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Kutubxonalarda ma'lum sohalarga oid adabiyotlar ro`yxati mavjud bo`ladi. Kitobxon kutubxona katologlari va kitobdan foydalanish haqidagi qo`llanmalar asosida o`zining shaxsiy rejasini tuzib olishi lozim. Bunday rejani tuzishga maxsus fan o`qituvchilari, kutubxonachilar yordam berishlari mumkin.

Texnik adabiyotni o`rganishning muhim talabi materialni o`rganish ketma – ketligiga e'tibor berish hisoblanadi. Ayrim talabalar diqqatni bir joyga jamlab ololmaydilar. Ular kitobga qarab o`tirish mobaynida fikrlari boshqa narsalarda bo`ladi. Bu kitob mazmunini tushunishda qiyinchiliklar tug`diradi. Aynan o`sha sahifalarni qayta o`qib chiqish zarurati tug`iladi. Ko`pchilik talabalar vaqtadan yutish maqsadida matnni o`qish davomida ayrim so`zlarni, iboralarni tashlab ketishadi. Bu sabablar ham materialni to`liq o`zlashtirishga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Shuning uchun matn o`qish davomida ma'lum qismida to`xtalish qilib yuqorida o`qilgan material yuzasidan xulosalar chiqarish, savollar qo`yish yoki og`zaki tushunganini takrorlash samarali natija beradi. O`qish davomida tushunmagan so`zlar va savollar yozib

olinishi va lug`atlar qo`llanmalar, mutaxassislar yordamida aniqlab olish talab qilinadi.

Texnik adabiyotlarni o`qishda majburiy shart o`qishni takrorlash hisoblanadi. Kitobni birinchi marotaba to`liq o`qib chiqilsa, takror o`qishda yaxshi tushunmagan savollarga e'tibor qaratiladi. Kitobni qanchalik diqqat bilan o`qimang baribir ba'zan juda muhim fikrlar, misollarga yetarli e'tibor berilmay qolishi mumkin. Kitobni takroriy o`qib chiqish kitobdagagi asosiy fikrlar va muhim dalillar asosida tushunib olishga yordam beradi.

O`qiganlariga ijodiy, tanqidiy munosabatda bo`lishga o`rganish, mustaqil o`qish jarayonida olgan bilimlarini o`zining amaliy faoliyatida qo`llashga harakat qilish juda muhimdir. Ayniqsa bo`lajak kasb ta'limi bakalavr o`qituvchilar uchun kasbiy fanlarni o`qitish jarayonida o`quv qo`lanmalari bilan ishlashni takomillashtirish kerak. Bunda talabalarni yangi o`quv materialini idrok qilishga yaxshi tayyorlash uchun ularga qo`llanmaning ma'lum bo`limini o`qish vazifa qilib beriladi. Shuningdek, talabalarga qo`llanma bo`yicha mehnat ob'ektlari bilan tanishish va ularni tayyorlash bilan bog`liq bo`lgan texnologik jarayonlar tartibini o`ylab ko`rishni ham topshirish mumkin.

Bo`lajak kasb ta'limi o`qituvchilarining mustaqil ishlashlari uchun tavsiyalar

Mustaqil ishslash jarayonida barcha g`oya va ma'lumotlarni yodda saqlab qolishga urunmang. Materialni eng asosiy bo`lgan ma'lumotlar mazmun va mohiyatini bilib olishga harakat qiling.

Uy vazifalari ustida ishslashda quyidagilarga amal qiling.

1. Uyga berilgan vazifa ustida ishslashdan avval bu ishni bajarishdan maqsad, uning mazmuni, mohiyati nimada ekanligini shartli ravishda o`zingiz uchun shakllantirib oling. Mustaqil ish bajarishda uni shunchaki bajarish (misol yechish, muammoni hal etish) dan ko`ra oldinga qo`yilgan maqsad sari intilish maqsadga muofiqdir.

2. Oldinga qo`yilgan maqsad sari harakat qilishda turli vazifalarni, mashqlarni bajarishda o`zingizni sinab ko`rish uchun yana bir necha qo`shimcha amallarni bajaring.

3. Shundan so`ng darslikka e'tiborni qaratib, amallarni nazariy materiallar talabiga javob berishni tekshirib ko`ring. Alovida ahamiyatli qismlariga katta e'tibor bering.

4. Kitobdagagi nazariy materialni o`qib, savollarga javob bering, qo`shimcha adabiyotlardan foydalaning.

5. Mavzga oid yozma ish bajaring;

- Kutubxonadan qo`shimcha adabiyot oling;

- Mavzuning qoralamasini tayyorlang;

- Yozma ish rejasini tuzing;

- Nazariy material bilan yozma ishni qiyoslang;

O`z ishing ustidan nazorat qilishni o`rgan!

1. O`z xatoing ustida o`zing ishla
2. O`quv materialini o`rganib chiq va uni og`zaki so`zlab ko`r.
3. O`z bilimingni ko`proq boshqalarga o`rgat.

O`z ishingni samarali tashkil etishni o`rgan!

1. Yaxshilab dam olgandan so`ng mustaqil ishlashni boshla. Mustaqil ishslashda uzoq vaqt band bo`lmaslik zarur.
2. Ish boshlashdan oldin o`zingga nimalar qilish haqida xisobot ber.
3. Ish jadvalini tuzib chiq. Ish boshlaganingdan 15-20 daqiqa o`tgach yuqori natijalarga erishib boshlaganingni belgilab bor. Aynan shu davrdan murakkabroq ishlarni amalga oshir.
4. Ishga zarur bo`lgan barcha narsalarni oldindan tayyorlab qo`y.
5. Ish mobaynida avvaldan tuzilgan ish jadvaliga amal qilayotganiningni va nimalarni bajarganingni belgilab bor.
6. Birinchi soatda dam olmay ishlash mumkin, ikkinchi soatdan boshlab, 30-40 daqiqa ishdan so`ng 5-10 daqiqadan dam olishga harakat qil.
7. Ish bajarishda halaqit beradigan barcha narsani yig`ishtirib qo`y.
8. Agar biror ishni birdaniga bajara olmasang, uni to`xtatib bir oz vaqtdan so`ng uni bajarishga kirish.

MUSTAQIL ISH UCHUN MAVZULAR MAZMUNI:

Mavzu: Kursning maqsadi va vazifalari. Pedagogika fanlari tizimida tutgan o`rni va bahs mavzulari.

R E J A :

1. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etishda pedagogik omilning ahamiyati.
2. Pedagogik mahorat asoslari kursining maqsadi - bo`lajak o`qituvchilarni ta'lim-tarbiya masalalarini ijodiy mustaqil va oqilona hal eta olishga ilmiy-nazariy, amaliy jihatdan tayyorlash ekanligi.
3. Kursning pedagogika, psixologiya, uslubiyot va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi.
4. Pedagogik mahorat va uning manbalari, bahs mavzulari to`g`risida tushuncha: madaniyat, nazokat, notiqlik, dars o`tish va tarbiyalash mahorati, san'ati.

ADABIYOTLAR:

1. «Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent 1997 yil.
2. «Pedagogika». Munavvarov A.- T. 1996 yil
3. «Sodatnoma» Usmonov R. Toshkent 1996 yil.
4. «Yangi O`zbekistonning 7 zafarli yili». T.»Sharq» 1999 y.
5. Kadrlar tayyorlash bo`yicha milliy dastur. (Maxsus kurs) Toshkent 1997 yil.

Tayanch iboralar va tushunchalar:

Milliy dastur, pedagogik mahorat, manbaa, madaniyat, nazokat, notiqlik, tarbiyalash, pedagogik omil, ijodiy, mustaqil ilmiy pedagogik.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Milliy dasturni ahamiyati nimada deb bilasiz?
2. Pedagogdagi madaniyat, nazokat, notiqlik tushunchalarga sizning fikringiz?
3. Pedagogik manbalar haqida nimalarni bilasiz?

\

Mavzu: Pedagogik mahoratning mohiyati va mazmuni, uni tarkib toptirish yo`llari.

R E J A :

1. Pedagogik mahorat va pedagogik faoliyat tug`risida tushunchalar.
2. Pedagogik bilimlar, ko`nikmalar va malakalar tizimi, pedagogik shaxsi va uning sifatlari pedagogik mahoratning asosi ekanligi.
3. Pedagogik mahoratni tarkib toptirish yo`llari.
4. O`qituvchi asoslanadigan rioya etidigan asosiy printsiplar va odoblar.

A D A B I Y O T L A R:

1. «Barkamol avlod orzusi». Sharq Toshkent. 1999 yil.
2. «Pedagogika» A.Q.Munavvarovning umumiy tahriri ostida.T.» O`qituvchi». 1996 yil.
3. «Osmono` pedagogicheskogo masterstva». «Vo`sshaya shkola» Kiev 1987 god.

Asosiy tayanch iboralar va tushunchalar.

Pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, pedagogik bilim, ko`nikma, malaka, shaxs sifatlari, o`qituvchi odobi, o`qituvchi printsiplari, o`qituvchi ijodkorligi, o`quv jarayoni, tadqiqotchilik, taraqqiyot, profesogramma.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Pedagogikaning faoliyati to`g`risida tushunchangiz.
2. Pedagog shaxs va uning sifatlari haqida nima deya olasiz.
3. Pedagogik mahoratni qanday tarkib toptirish yo`llari bor.
4. O`qituvchi qanday printsiplarga amal qilishi kerak.

Mavzu: Pedagogik faoliyatida maktab va teatr pedagogika tarkibiy qismlarini qo`llash.

R E J A :

1. Teatr va pedagogik san'atning umumiy va o`ziga xos tomonlari.
2. Pedagogik jarayondagi rejissura va aktyorlik elementlari.

3. O`qituvchi va aktyorlik tipologiyasi.
4. Pedagogik va aktyorlik talanti, bilishga intilish, estetik did va o`zini tuta bilish boshqarish mahorati.
5. A.S.Makarenko va K.S.Stanislavskiy pedagogik mahorati va san'ati.

A D A B I Y O T L A R:

1. «Pedagogika» A.Q. Munavvarov «O`qituvchi» nashriyoti 1996 y.
2. «Osnovo` pedagogicheskogo masterstva». «Vo`sshaya shkola» Kiev 1987 god.
3. «Tarbiyaviy ish metodikasi» L.I.Ruvinskiy «O`qituvchi» nashr. 1991 yil.
4. «Pedagogika kursi lektsiya» B.T.Lixochev. Moskva 1993 yil.

Asosiy tayanch iboralar va tushunchalar:

Pedagogik san'at, pedagogik jarayon, pedagogik rejissura, pedagogik aktyorlik, tipologiya, talant, estetik did, o`zini tuta bilish, boshqarish mohiyati, tarbiyaviy jarayon, pelagogik ta'sir, drammaturgiya, syujet.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Teatr va pedagogik san'atning o`ziga xos umumiyligi tom'onlari nimada?
2. Pedagogik jarayondagi rejissura va aktyorlik elementlari haqida sizning fikringiz.
3. Pedagog va aktyorlik talanti o`ziga xos tomonlarni nimada deb bilasiz.

Tayanch iboralar:

Tipologiya. Etyud. Pedagogik dramaturgiya.

Mavzu: Pedagogik mahorat asoslari va pedagogik qobiliyatlar.

R E J A :

1. O`qituvchining professional bilimdonligi: ilmiy, pedagogik, psixologik, uslubiy tayyorgarligi, mahorati qirralari.
2. Pedagogik qobiliyat, iqtidor, layoqat, iste'dod, talant, tajriba, onglilik, dunyoqarash, ishbilarmonlik, omilkorlik va boshqalar.
3. Pedagogik qobiliyatlar loyhalash, oldindan ko`ra bilish, diqqatni taqsimlay olish, tashkilotchilik va tadbirkorlik, ijodkorlik, tushuntira olish qobiliyatasi, obro` ortirish qobiliyatasi, kuzatuvchanlik qobiliyatasi, bilim qobiliyatasi.

ADABIYOTLAR:

1. "Pedagogika" A.Q.Munavvarov Toshkent "O`qituvchi" 1996 yil.
2. "Vatan tuyg`usi" Toshkent "O`zbekiston" 1996 yil.
3. "Tarbiyaviy ish metodikasi" L.I.Ruvinskiy Toshkent "O`qituvchi" 1991 yil.
4. "O vospitanii" A.S.Makarenko. Moskva 1990 yil.
5. "O`qituvchilar malakasini oshirishda mакtab rahbarlarining roli". K.Zaripov, Toshkent "O`qituvchi" 1993 yil.

Tayanch iboralar va asosiy tushunchalar:

Professional qobiliyat, iqtidor, layoqat, iste'dod, tajriba, onglilik, dunyoqarash, ishbilarmonlik, omilkorlik, loyihalash, diqqat, tadbirkorlik, kuzatuvchanlik.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. O'qituvchining professional bilimdonligi nima ?
2. O'qituvchi qanday qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak ?

Tayanch iboralar:

qobiliyat, iqtidor, layoqat, is'tedod, talant, tajriba, safarbarlik, qat'iylik, kamtarlik, tashkilotchilik, kuzatuvchanlik.

Mavzu: Pedagogik texnika pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida.

R E J A :

1. Pedagogik texnika, takt, stil to`g`risida tushuncha.
2. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari.
3. Pedagogik ta'sir ko`rsatish uslubiyoti va mahorati.
4. Pedagogik vaziyatlar va o'qituvchining hulq-atvori.
5. Pedagogik texnika o'qituvchi malakalari majmuasi ekanligi.
6. Pedagogik texnikaning egallash yo'llari.

ADABIYOTLAR:

1. «Pedagogika kursi» I.Tursunov, U.Nishonaliev 1997yil «O'qituvchi» Toshkent.
2. «Tarbiyaviy ish metodikasi» L.I.Ruvinskiy. «O'qituvchi» T. 1991 yil.
3. «Osnowo` pedagogicheskogo masterstva». «Vo`sshaya shkola», Kiev 1987 yil.
4. «O'qituvchilarni malakasini oshirishda muktab rahbarlarining roli». K.Zaripov, T., «O'qituvchi» 1993 yil.

Tayanch iboralar va asosiy tushunchalar:

Pedagogik texnika, takt, stil, pedagogik ta'sir, pedagogik vaziyatlar, imoshora, mimika, individual, psixik, fiziologik, mijoz, fe'l atvor, anatomik, hissiy, ma'naviy, estetik, avtomatlashtirish, artikulyatsiya, fanatsion, relakatsion.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Pedagogik texnika, takt, stil haqida nimalarni bilasiz?
2. Pedagogik texnikani qanday tarkibiy qismlari bor?
3. Pedagogik vaziyatlar nimalardan iborat bo'ladi?

Tayanch iboralar:

Avtomatlashtirish, artilulyatsiya, fanatsion, relaksatsiya.

Mavzu: Notiqlik mahorati pedagogik mahoratning muhim sharti ekanligi.

R E J A :

1. Nutq, til madaniyati va odobi to`g`risida tushunchalar.
2. Nutq odobi to`g`risida mutafakkirlar qarashlari (Alisher Navoiy, Mahmud qashg`oriy).
3. Notiqlik va so`z san'ati.
4. Ta'lif jarayonida nutq madaniyati masalalari.
5. Nutq madaniyatini egallashning usul va yo`llari.
6. O`zbek adabiy tili va adabiy tilining normativligi.

ADABIYOTLAR:

1. «Vatan tuyg`usi» A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo`raev.T. «O`zbekiston» T.1996 yil.
2. «Turkiy Guliston yohud ahloq» A.Avloniy «O`qituvchi» T.1992.
3. «Ahloq - odob saboqlari» Ulfat Maxkamov «Fan» 1994 y.
4. «Dil ajoyibotlarining sharxi». «Kamolat» Muhammad Abu Hamid G`azzoliy T.1990 yil 199 bet.
5. «Ajdodlar o`giti».T. «Cho`lpon» 1991 yil 118-bet.
6. «Nutq o`sirish mashg`ulotlari» A.g`ulomov, B.qobilova,T. «O`qituvchi» 1995 yil.

Tayanch iboralar va asosiy tushunchalar:

Nutq, til, madaniyat, odob, notiq, so`z, tilning normativligi, ona tili, muomala, foydali, zaruriy ma'nosiz, fitna – nizo, me'yor.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Til madaniyati va odobi to`g`risida tushunchangiz?
2. Nutq odobi to`g`risida Mutafakkirlar fikrlarini tushuntirib bering.
3. Ta'lif va tarbiya jarayonida nutq madaniyatini o`rni nimalardan iborat?
4. Til normativlari bilasizmi, ular haqida sizning fikringiz?

Tayanch iboralar:

Til. Nutq. Me'yor.

Mavzu: Pedagogik mahorat va muomala madaniyati.

R E J A :

1. Pedagogik muloqat va uning funktsiyalari.
2. O`qituvchining muomala stili va pedagogik takt.
3. O`qitiuvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo`llari.
4. O`qituvchi va o`quvchilar muomala madaniyati, hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish masalalari.

ADABIYOTLAR :

1. «Vatan tuyg`usi» A.Ibrohimov, X.Sultonov. N.Jo`raev Toshkent.
«O`zbekiston» 1996 yil.
2. «Tarbiyaviy ish metodikasi» L.I.Ruvinskiy T. «O`qituvchi» 1991 yil.
3. «Saodatnomha» tanlangan asarlar. T. «O`qituvchi» 1995 yil.
4. «So`zlashish man`ati» Siddiq Mo`min «Farg`ona» 1997 yil.

Tayanch iboralar va asosiy tushunchalar:

Pedagogik muloqot, funktsiya, muomala, kommunikativ muomila madaniyati, munosabat, rivojlantirish, madaniy, nafis did, farosat, hulq atvor, namoyon, go`zal, tovush, donishmand, usul, uslub, vosita, samarali.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Pedagogik muloqot funktsiyalari haqida so`zlab bering.
2. O`qituvchining muomala stili va takti haqida sizning fikringiz.
3. O`qituvchida kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak?

Mavzu: O`qituvchining dars o`tish mahorati va ta'lim jarayoniga rahbarlik mahorati.

R E J A :

1. O`quv mashg`ulotlarida hamkorlik pedagogikasi.
2. O`quvchilar bilish faoliyatlariga rahbarlik qilishda o`qituvchining mahorati.
3. O`qituvchining pedagogik mehnat madaniyati.
4. Yangi o`quv materialini bayon etishda o`qituvchining mahorati.
5. O`quvchilar bilan, ko`nikma va malakalarini baholashda o`qituvchining mahorati.
6. O`quvchilar bilish jarayonlarini faollashtirish va sinf doskasidan foydalanishda o`qituvchining mahorati.

ADABIYOTLAR:

1. «Pedagogika kursi» I.Tursunov, U Nishonaliev.,T. «O`qituvchi» 1997 yil.
2. «Barkamol avlod «O`zbekiston taraqqiyotining poydevori» Toshkent 1997 yil.
3. «O`qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarlarining roli» K.Zaripov. Tosh. «O`qituvchi» 1993 yil.
4. «Pedagogika» A.Q.Munavvarov Tosh. «O`qituvchi» 1996 yil.

Tayanch iboralar va asosiy tushunchalar:

O`quv mashg`ulotlari, hamkorlik, bilish, pedagogik mehnat, pedagogik madaniyat, o`quv materiali, bayon, ko`nikma, malaka jarayon, faollashtirish, sinf, doska, foydalanish, o`zbek pedagogikasi, tarbiyaviy jarayon, tarbiyaviy ish,

tarbiyaviy istak, shakl, mazmun, sub'ekt, guruh, ijod, sport, sektsiya, sessiya, demokratik.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Hamkorlik pedagogikasi haqida nimalarni bilasiz?
2. O`qituvchi o`quvchini bilish faoliyatiga qanday rahbarlik qilishi kerak?
3. O`qituvchining mehnat madaniyatini qirralari nimalardan iborat?
4. O`qituvchini faollashtirish uchun sinf doskasidan qanday foydalanish kerak?

Mavzu: Tarbiyachilik mahorati va bolalarni sevish san'ati.

R E J A :

1. Tarbiyachilik mahoratining mohiyati.
2. Tarbiyachilik mahorati bu ijodkorlik.
3. Tarbiyachilik mahorati va bolalarni sevish san'ati to`g`risida ustozlar fikr-mulohazalari R.Usmonov, A.Abdurasulov.
4. Yangicha ishlayotgan (novator) pedagoglar va ilg`or pedagogik tajribalarni o`rganish va umumlashtirish.

ADABIYOTLAR:

1. «Barkamol avlod orzusi» Tosh. «Sharq» 1999 yil.
2. «Pedagogik izlanish» Tosh. «O`qituvchi» 1990 yil.
3. «Boshlang`ich ta'lim shaxs kamolotining poydevori». - Farg`ona 1999 yil T.Qurbanov.
4. «O`qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarlarining roli» Tosh. «O`qituvchi» 1993 yil.
5. «Saodatnomma» tanlangan asarlar. Tosh. «O`qituvchi» R.Usmonov.
6. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» Tosh. «O`qituvchi» 1993 yil P.Yusupova.

Tayanch iboralar va asosiy tushunchalar:

Tarbiyachi, tarbiyachilik, ilg`or pedagog, navator pedagog, ijodkor o`qituvchi, tarbiyachilik mahorati.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Tarbiyachi san'ati deganda nimani tushunasiz?
2. Ilg`or pedagogik tushuncha sizningcha?
3. Ijodkor pedagoglarni ish faoliyati nimalardan iborat?
4. Tarbiyachilik mahorati bo`yicha ustozlar fikrlaridan nimalarni bilasiz?

PEDAGOGIK MAHORAT KURSI ASOSLARI BO`YICHA TANLANGAN MAVZULAR UCHUN SAVOLLAR.

Mavzu: №1 Kursning maqsad va vazifalari, pedagogika fanlari tuzimida tutgan o`rni va baxs - mavzulari.

S A V O L L A R

1. Pedagogika fanining barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uning kelib chiqadigan pedagogik vazifalar.
3. Pedagogik mahorat tushunchasini izohlab bering.
4. Pedagogik madaniyat, notiqlik tushunchalariga sizning fikringiz.
5. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi.
6. Pedagogik mahorat fanini manbaalari to`g`risida qanday ma'lumotlarga egasiz.
7. O`qituvchilik qobiliyat turlari va ularning pedagogik izohlari.
8. Iqtidorli yoshlar bilan ishlash mahoratini pedagogik asoslari.
9. Dars tashkillash va o`tish jarayonidagi pedagogik mahorat haqida tushunchalarингiz?
10. Pedagogik mahorat fanini ilmiy va nazariy asoslari.

Mavzu: №2 Pedagogik mahoratning mohiyati va mazmuni uni tarkib toptirishni yo`llari.

S A V O L L A R

1. Pedagogning faoliyati to`g`risida tushunchalaringiz.
2. Pedagog shaxsi va uning sifatlari haqida nima bilasiz.
3. Pedagogik mahoratni qanday tarkib toptirish yo`llari bor.
4. O`qituvchi qanday printsiplarga amal qilishi kerak.
5. Pedagog odobi va axloqi masalalariga oid talablar.
6. Pedagog etikasi va uni mezonlari.
7. O`qituvchi shaxsning pedagogik xususiyatlari.
8. O`qituvchining ruxiy - pedagogik tayyorgarligi.
9. Maxsusgarlikning shakli va mazmuni.
10. Ixtisoslikka oid uslubiy tayyorgarlikning mazmuni.

Mavzu: №3 Pedagogik faoliyat maktab va teatr pedagogikasi tarkibiy qismlarini qo`llash.

S A V O L L A R

1. Pedagogik san'atiga izoh berish va ta'riflash.
2. Teatr va pedagogik sanatini o`ziga xos umumiyligi tomonlari nimada.

3. Pedagogik jarayondagi rejessura va aktyorlik elementlari haqida sizning fikringiz.
4. Pedagog va aktyorlik talanti, o`ziga xos tomonlari haqida nima bilasiz.
5. Pedagogik jarayon deganda nima tushuniladi.
6. Pedagogik talant va unga erishish yo`llari.
7. Pedagogni o`zini tuta bilishi va boshqarish mahorati.
8. Tarbiyaviy jarayon va uni tashkillash mahorati.
9. Pedagog va aktyorni o`zaro o`xshashligi va fikri.
10. Pedagog jarayonini teatrlashtirish yo`llari.

Mavzu: № 4 Pedagogik mahorat asoslari va pedagogik qobiliyatlar

S A V O L L A R

1. O`qituvchini professional bilimdonligini mezonlari.
2. Pedagogik qobiliyat va uni aniqlash yo`llari.
3. Pedagogni zamonaviy kasbiy fazilatlari va ularni shakllantirish yo`llari
4. O`qituvchini muloqot madaniyati.
5. O`qituvchini ijodkorlikka intilishi va ijodiy ishlar.
6. Pedagogik kasb sirlari va tarbiyaviy ahamiyati
7. Pedagogik mas'uliyat va kasb etikasi.
8. O`qituvchini mustaqil ta'lim olishini tashkillash yo`llari.
9. O`qituvchini o`z-o`zini tarbiyalash yo`llari.
10. O`qituvchilik kasbi vauning pedagogik ahamiyati.

Mavzu: № 5 Pedagogik texnika pedagogik mahoratning tarkibiy qismi sifatida.

S A V O L L A R

1. Pedagog texnikasini tarkibiy qismlarini izohlab bering.
2. Pedagogni so`z boyligi va notiqligiga qo`yiladigan talablar.
3. Pedagogni ta'sir ko`rsatish uslubiyoti va mahorati.
4. Pedagog vaziyatlari va ularni ochish yo`llari.
5. Pedagogni maxalliy manbaalaridan foydalana olish mahorati.
6. O`qituvchini darsda texnik vositalari kamppyuterlardan foydalanish yo`llari.
7. Internet tizimiga chiqish va undan foydalanish yo`llari.
8. Pedagogik muloqotda imo-ishora, mimika va boshqa organlar orqali ishlay olish mahorati.
9. Pedagogik texnikani egallash yo`llari.
10. Pedagogik mahoratni takomillashtirishda pedagogik texnikadan unumli foydlanish yo`llari.

Mavzu: №6 Notiqlik mahorati pedagogik mahoratning muhim sharti ekanligi.

S A V O L L A R

1. Til madaniyati va odob haqida tushunchalar.
2. Mutafakkirlarning nutq odobiga bag`ishlab bildirgan fikrlarini izohlang.
3. Ta'lim va tarbiya jarayonida nutq madaniyatini o`rni.
4. Notiqlik mahorati va mezonlari va unga qo`yilgan talalar.
5. Ma'ruza qilish madaniyatini usul va o`llari.
6. O`zbek tiligi davlat tili maqomi qachon berildi va uni pedagogik ahamiyati.
7. Notiqlik va so`zlashish madaniyati.
8. Tinglash madaniyati.
9. So`z boyligini ortirish va so`zo`lardan to`g`ri foydalanishning pedagogik asoslari.
10. Lug`atlar bilan ishslash yo`llari.

Mavzu: № 7. Pedagogik mahorat va muomala madaniyati.

SAVOLLAR.

1. Muloqat madaniyati pedagogik mahoratni qismidir.
2. Kommunikativ muomala haqidagi tushunchangiz.
3. O`qituvchining muloqat jarayonida o`zini tuta bilishi va madaniyati.
4. Suzlashish va eshitish madaniyati.
5. Muomala kilishdagi pedagogik talablar va ularni axloq odob normalari bilan uzviy bogliqligi.
6. O`qituvchining ma`naviy fazilatlarini shakllanishida muloqat madaniyatini ahamiyati.
7. Sharkona muloqat madaniyatini pedagogik xususiyatlari.
8. Milliy qadriyatlarimizda muloqat madaniyatini o`rni.
9. O`qituvchining muloqat madaniyati shakllanishida adabiy, ilmiy va maxsus manbalarning o`rni.
10. Pedagogning baxs munozora jarayonidagi o`rni va uning boshqarish mahorati.

Mavzu № 8. O`qituvchining dars o`tish mahorati va ta'lim jarayoniga rahbarlik mahorati.

SAVOLLAR.

1. Dars, dars turlari va unga qo`yiladigan pedagogik va psixologik talablar.
2. O`quv jarayonida o`zaro hamkorlik darajasiga erishi yo`llari.
3. O`quvchilarning bilish faoliyatlariga rahbarlik qilish mahorati.
4. Darsni tashkillashda o`qituvchini mahorati va uslubi.
5. O`qituvchini o`quvchilarni darsda faollashtirish mahorati.

6. O`qituvchini o`qitish jarayonida predmetga bo`lgan qiziqishni ottirish mahorati asoslari.
7. O`qituvchini sinf xonasi, doskasi, kurgazmali quollar, didaktik tarkatma materiallardan foydalana olish mahorati.
8. O`qituvchini mehnat madaniyati kirralari va asoslari.
9. O`qituvchini rahbarlik mahoratini pedagogik negizlari.
10. Ijodkorlik, tashabuskorlik, izlanuvchanlik o`qituvchilik kasbini asosiy mezonlari.

Mavzu № 9. Tarbiyachilik mahorati va bollarni sevish mahorati.

SAVOLLAR.

1. Tarbiya, tarbiyachilik va ularning mohiyati.
2. Buyuk allomalarimizning tarbiyaga bergan izohlari.
3. O`zbekiston prezidenti I.A.Karimovning hozirgi mustaqil O`zbekiston yoshlar tarbiyasiga oid fikr va mulohazalari.
4. Barkamol avlod tarbiyasi tushunchasi.
5. O`zbekistondagi ilg`or pedagog tarbiyachilar ish tajribasi va ularni ahamiyati.
6. Bola aziz boladan odobi aziz iborasini izohlang.
7. Odobni odobsizdan o`rgan iborasini izohlang.
8. Bolajonlik o`zbek millatini milliy tarixiy qadriyatidir.
9. Tarbiyachisi o`zi tarbiyalangan bo`lishi kerak iborasini izohlang.
10. Tarbiyachilik mahoratini shakllantirishdagi ilg`or novartor o`qituvchilar ish tajribasidan foydalanish yo`llari.

Foydalanilgan adabiyotlar

a) asosiy adabiyotlar

1. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq 1997-64 b.
2. N.P.Anikeeva. Jamoadagi ruhiy muhit T.: «O'qituvchi» 1993. 256 b.
3. Osnovo` pedagogicheskogo masterstva. Pod redaktsiey A. Zyazuna. M.: Prosvehenie. 1989. - 302 s.
4. V.A.Kan-Kalik., N.D.Nikandrov. Pedagogicheskoe tvorchestvo M.: Pedagogika. 1990. 144 s.
5. V.A.Kan-Kalik. Uchitelskogo pedagogicheskem obhenii M.: Prosveshenie. 1987. 190 s.
6. Kuxarev N. V. Na puti k professionalnomu sovershenstvu. - M.: Prosvehenie. 1990-159 s.
7. A.S. Makarenko Tvorcheskoe ispolzovaniya pedagogicheskogo naslediya v vospitanii buduhix rabochix. M: 1991-415
8. O`zbek pedagogikasi antologiyasi. T.: «O'qituvchi» 1995.
9. Pedagogika tarixi. T.: «Sharq». 2000.
10. R.Mavlanova., O.To`raeva., Q.Xoliqberdiev. Pedagogika T.: «O'qituvchi» 2001.

b) qo`sishimcha adabiyotlar

1. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. G`G` O`z-muallif Hasanboeva G`G` T.: «O'qituvchi». 1992-208 b.
2. I.Batenova. Pedagogik izlanish T.: «O'qituvchi» 1989. 608 b. Abdulaev X. Kim qanday o`qitadi. G`G` Ma'rifikat. 16. 07.
3. 1998. N: 52 (7049).
4. Minovvarov Sh. Teatr pedagogikasi elementlarini egallaylik. G`G` Xalq ta'limi 1999. N:4, 125-126 bet.